Annotatsiya: Ma’lumki yangi avlod vatanimiz kelajagi bo‘lsa, yosh tadbirkorlar iqtisodiyotimiz kelajakdagi poydevoridir. Shuning uchun hozirdan yosh va yangi tadbirkorlarimizni qo‘llab quvvatlash yangi bosqichlarga chiqib, qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa yangi texnologiya davrida, turli innovatsion yo‘nalishlar kesimida bu juda katta rivojlanishga turtki berish imkoniyatlarini beradi. Oddiy qilib aytganda kichik yoshdagi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish yangi ish o‘rinlarini yartishning muqobil usullarining bir shaklidir. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish muximligi kelajakda ushbu toifadagi tadbirkorlar ishbilarmonlik muxiti va mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti tezligini belgilab berishi bilan aloxida ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: yangi texnologiya, innovatsiya, kelajak, yosh tadbirkorlik, yangi avlod.

**THE ROLE AND FUTURE SIGNIFICANCE OF NEW AND YOUNG
ENTREPRENEURS IN THE DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION
TECHNOLOGY ERA.**

Abstract: It is known that the new generation is the future of our country, and young entrepreneurs are the future foundation of our economy. Therefore, from now on, the support of our young and new entrepreneurs has reached new levels, and additional opportunities are being created. Especially in the era of new technology, in the cross-section of various innovative directions, it gives opportunities to stimulate great development. Simply put, youth entrepreneurship development is a form of alternative ways of creating new jobs. The importance of developing youth entrepreneurship is distinguished by the fact that in the future this category of entrepreneurs will determine the business environment and the speed of the country's economic development.


Key words: new technology, innovation, future, young entrepreneurship, new generation.

Yangi texnologiya zamonida innovatsion ya'ni yangi texnologiya bilan chambarchas bog'liq tadbirkorlikni rivojlantirish xar bir davlatning xam ilmiy, xam iqtisodiy istak va oliy maqsadlaridan biri xisoblanadi. O'zbekistonda xam bu borada turli bax-munozalar va takliflar asosida rivojlantirish yo'llari belgilanmoqda va shakllantirilmoqda. Bunga misol tariqasida davlat dasturlari, yangi taraqqiyot strategiyasi(2022-2026) va prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning ko'pgina qaror va farmonlarini keltirib o'tishimiz mumkin. Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida 2021 yil 1 maydan boshlab 2023 yil 1 yanvarga qadar ish beruvchilarga (byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasi Davlat byudjetidan to'liq qaytarib berilishi belgilandi. Bunda, ijtimoiy soliq summasi yosh xodimlar olti oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirishi sharti bilan yettinchi oydan boshlab

qaytariladi. Ayniqsa "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda "Yoshlar daftari" jamg'armalari hisobidan subsidiya ajratish belgilandi[1]. Bu yoshlarga qo'shimcha imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Bir oy o'tgandan so'ng bunga mos ravishda prezidentimizning «Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida qarori yosh tadbirkorlarning shakllanishiga juda katta turtki vazifasini o'tab berdi. Unda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tashkil qilish va boshqarish, ularga joylashtirish uchun yosh tadbirkorlik sub'ektining investitsiya loyihalarini tanlab olish va joylashtirish, ularda joylashgan binolar va inshootlarni xususiylashtirish, shuningdek, tijorat banklari tomonidan qurilgan bino va inshootlarni lizing yoki ijaraga berish tartibini nazarda tutuvchi Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi to'g'risidagi nizom belgilandi. Bunga qo'shimcha ravishda yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari, jamg'arma faoliyatini boshqarish, jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtirish, shuningdek, uning mablag'laridan foydalanishga doir hisobot va nazorat yuritish tartibini nazarda tutuvchi Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi[2]. Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi hamda Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risida nizomlari bu yuqoridagi davlat farmon va qarorlarini to'ldirishga xizmat qildi.

Yoshlar kichik tadbirkorligini qo'llab quvvatlash bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilayotganiga qaramay, qator muammolar mavjud. Bularga o'z biznesini boshlash uchun yoki frilanserlik qilish uchun ta'lim, bilim va ko'nikmalar yetishmasligi; biznesni yaratish uchun dastlabki investitsiyalar etishmasligi; yoshlarning tavakkal qilishni istamaydigan past ijtimoiy munosabatlari, tadbirkorlik ruhi va shaxsiy motivatsiyasining yo'qligi; yoshlar yirik firmalar va davlatga qarashli korxonalarda ishga joylashish imkoniyatlarini ko'proq tanlashadi. Ko'pincha ular

tadbirkorni doimo yengib o‘tadigan shaxs sifatida qabul qilishadi, qiyinchiliklar, va muvaffaqiyatga intiluvchi emas, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun yuqori ma’muriy va huquqiy to‘siqlar; yangi boshlanuvchilar uchun yuqori soliqlar va kredit stavkalari yosh tadbirkorlarimizga to‘siq yaratishi mumkin. Bu borada xam qator ishlar amalga oshirilmoqda. Innovatsiya vazirligining grandlari, IT PARKlar, biznes inkubatorlar, tehnomarkazlar, akselerator markazlari, yoshlar markazlari shular jumlasidandir.



1-rasm. Tadbirkorarning foiz ko‘rsatkichlari.

Hozirda yurtimiz tadbirkorlarining 22,9% (106,574) yosh tadbirkor (31 yoshdan kichik) hisoblanadi. Yakka tadbirkorlar orasida esa bu ko‘rsatkich 21,5% (71,467) ga teng. Yosh Tadbirkor ekotizimi yosh tadbirkorlarni moliyaviy va axborot jihatdan teng darajada qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilgan. Unda imtiyozli kreditlar, venchur investitsiyalari va grantlar, shuningdek mentorlik, treking, biznes-ta’lim, treninglar, master-klasslar, vorkshoplar, seminarlar va veb-seminarlarning ham o‘rni katta(1-rasm)[6].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, yosh tadbirkorlarni rivojlantirishda tizimli yondashuv zarur va tadbirkorlik infratuzilmasini isloh qilish darkor. Xar bir infratuzilma kamida 1 yilda 2 marta tadbirkorlarga biznes treninglar o‘tkazishi kerak. Bizda bu faqat respublikada televizor orqali chiqishlar asosida shakllanadi, viloyatlarda esa bu nomiga bajariladi. Buni xuddi reklama sifatida olib chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2021 y. PF-6208-son "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 21 apreldagi PQ-5088-son qarori
3. Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi hamda Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risida nizomlar tasdiqlandi (10.05.2021 yildagi 294-son VMQ).
4. <https://lex.uz/docs/5415709>
5. [Кимлар ёш тadbirkorлар ҳисобланади | NORMA.UZ](#)
6. <https://yoshtadbirkor.uz/>

БУХОРО ВОҲАСИ ШАРОИТИДА ОЛМА ДАРАХТДАРИНИНГ ЎСИШ, РИВОЖЛАНИШ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИНИНГ КЕСИШ УСУЛЛАРИ ВА ДАРАХТЛАРИГА БОҒЛИҚЛИГИ

Юнусов Рустам, доцент

Исмоилов Асрорбек Ўткир ўғли, талаба

Бухоро давлат университети

E-mail: ismoilovasrorbek15@gmail.com

Аннотация. Мазкур мақолада Бухоро воҳаси шароитида интенсив олма дарахтларининг ўсиш, ривожланиш ва ҳосилдорлигининг кесиш усуллари ва дарахтларни таъсири ўрганилган. Тадқиқотда кесиш усуллари ва даражаларини интенсив боғларда ҳосилга кириш вақтида, ҳосилнинг ҳажми ва сифатига ижобий таъсир қилиши аниқланган.

Калит сўзлар: Бухоро воҳаси, интенсив олма боғлари, ўрта ўсувчи пайвандтаглар, навлар, ўсиш, ривожланиш, ҳосилдорлиги, ҳосил сифати, самарадорлиги.

ЗАВИСИМОСТЬ РОСТА, РАЗВИТИЯ И ПРОДУКТИВНОСТИ ЯБЛОНИ В БУХАРСКОМ ОАЗИСЕ ОТ СПОСОБОВ И СТЕПЕНИ ОБРЕЗКИ ДЕРЕВЬЕВ

Аннотация. В данной статье изучено влияние способа и степени обрезки в интенсивных яблоневых садах. Установлено, что применение способа и степени обрезки в интенсивных яблоневых садах улучшает их плодоношения и увеличивает урожайность, качество плодов и эффективность производства плодов.

Ключевые слова: Бухарский оазис, интенсивные сады, сорта, рост, развитие, урожайность, качество плодов, эффективность.

ЗАВИСИМОСТЬ РОСТА, РАЗВИТИЯ И ПРОДУКТИВНОСТИ ЯБЛОНИ В БУХАРСКОМ ОАЗИСЕ ОТ СПОСОБОВ И СТЕПЕНИ ОБРЕЗКИ ДЕРЕВЬЕВ

Abstract: In this article, the influence of the method and degree of pruning in intensive apple orchards has been studied. It has been established that the use of the method and degree of pruning in intensive apple orchards improves their fruiting and increases yield, fruit quality and fruit production efficiency.

Keywords: Bukhara oasis, intensive orchards, varieties, growth, development, productivity, fruit quality, efficiency.

Мевачилик аграр соҳасининг аҳамияти ва ўзига хос соҳасидан бири ҳисобланиб, уруғлик интенсив мевали боғлар, жумладан, олма боғлари жадал билан ривожланиб, янги серҳосил мевали боғлар барпо қилинмоқда. Ушбу соҳада мева ишлаб чиқаришни кескин ошириш, сифатини тубдан яхшилаш ҳамда олма етиштириш таннархини камайтириш асосан янги интенсив боғлар барпо қилиш ва мавжуд боғлардан юқори ва сифатли олма мевалари ҳосилини етиштириш кўзда тутилган [1,2,3].

Охирги йилларда Ўзбекистонда жадаллаштирилган мевали боғлар барпо қилинмоқда, бу боғларда мевали дарахтларга шакл бериш ва навларнинг биологик хусусиятларини инобатга олган ҳолда, дарахтларнинг ёшига қараб, ҳосил берувчи 3-4 йиллик шохларни жойлаштириш қисми бўйича кесиш усуллари ва даражалари ҳамда муайян шакл бериш тадбирлари Ўзбекистон шароитида илмий асосда атрофлича ўрганиб келинмоқда [4.5.6].

Бухоро вилояти шароитида ҳам интенсив олма боғларида пайвандтагисекин ва ўрта ўсувчи, уни кичик муттасил мўл ва сифатли ҳосил берувчи навлар танланиб, юқори ресурс тежамкор агротехнологик омилларни қўллаб, 25-30 т/га сифатли ҳосил етиштириш имконият яратилади.

Бухоро воҳаси тупроқ - иқлим шароитида олма навларини ҳосил берувчи новдаларнинг циклик равишда ёшартирувчи кесиш усулларини ва дарахтнинг ҳолатига қараб, ўсувчи шохларнинг қисқартирувчи энг самарали даражаларини илмий асосланган ҳолда аниқлаш орқали интенсив олмазорлардан ҳар йили муттасил мўл ва сифатли ҳосил етиштириш технологияси бўйича ишлаб чиқариш тавсия берилмоқда.

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, жадаллашган боғларнинг новдаларида генератив органларнинг ва шохлардаги куртакларнинг жойланиши физиологик нуқтаси назардан аҳамиятли бўлиб, тугунчаларнинг кўп қисми мева бериш имкониятларига эга бўлади. Тадқиқот 2010-2019-йиллар давомида Бухоро туманида жойлашган, “Амин Ҳаёт боғи” фермер хўжалигида ўтказилди. Вилоятнинг иқлими кескин континентал ҳисобланади. Қиши қуруқ ва совуқ: январда ўртача ҳарорати 40 градусдан -13 градусгача бўлади. Нисбий намлик эса 46-60 фоизни ташкил қилади. “Амин Ҳаёт боғи” фермер хўжалигининг тупроғи қадимдан суғориладиган аллювиал ва кучсиз шўрланган ҳисобланади. Агрохимёвий тадқиқотлар натижалари бўйича бу тупроқларда чиринди миқдори 0,8-1,4% гача, азот 0,06-0,12% гача, фосфорнинг ялпи миқдори 0,11-0,18% гача, алмашинувчан калий миқдори 1,5-3,5% гача бўлади. Тадқиқотда 3 хил биологик хусусиятларга эга навлар – Голден Делишле, Ренет Симиренко ва Первенец Самарканд навларида ўтказилди, боғ 2005 йилда 6 хил шароитда барпо қилинди, пайвандтаги ўрта ўсувчи ММ – 106 [7,8,9].

Тажрибада ҳосил бериб бўлган ўсувчи шохларда яшартирувчи кесиш усуллари 3-4 йиллик циклик алмашиши бўйича кесиш ва ҳосил берувчи шохларни қисқартириш даражаларини аниқлаш ўрганилди. Олма дарахти шох-шаббаларини ёшартириш жараёнида ҳосил берувчи шохларда ҳосил куртакларини зарурий миқдорда қолдириш учун ҳосил шохларида 4-8, 8-12 ва 12-16 тадан куртак қолдирилиб қисқартирилади ва назорат вариантыда таққослаш учун ҳосил шохлари қисқартирилмайди.

Дарахт танасининг устки қисмида жойлашган новдаларида дарахтларни қирқиш жараёни аввал ўсувчи шохларда, кейин эса ярим скелетли ёғочларнинг камайиши билан бошланади. 2010-2019-йиллар давомида ўтказилган тадқиқотларда навлар ва вариантлар бўйича ҳосил берган шохларни ўриндош сифатида 3-4 йиллик цикл асосида ёшартирувчи кесиш усулини ўтқозиш натижасида шохларнинг сони, массаси ва тузилиши кесиш даражасига боғлиқ равишда кўпайганлиги аниқланди.

Тажрибада ўрганилган 3 хил олма навларида 3-4 йиллик ҳосил берган ўриндош сифатида ҳосил шохларини етиштириш орқали олма дарахтининг оптимал ўсиши ва ривожланишига шароит яратиши ва дарахт доимий равишда ҳосил берувчи шохларга эга булиш, муттасил мўл ва сифатли ҳосил бериши аниқланди 3 хил олма навларида кесиш усули ва дарахтларни кўпайтириш ва камайтириш йўли билан ўриндош сифатида ҳосил берувчи шохлари 3-4 йиллик циклик ёшартирувчи кесиш тадбири қўлланганда битта дарахтдаги новдалар сони 9-23% гача қисқариши кузатилди.

Ҳосил бериш учун қолдирилган 3-4 йиллик циклик ўриндош ёшартирувчи кесиш усули ва даражалари қўлланилган вариантларда бир йиллик новдалар ўсишнинг биологик кўрсаткичлари яхши бўлиб, муттасил мўл ва сифатли ҳосил олиш учун етарли ҳисобланади. Тадқиқот йиллари давомида 3-4 йил ҳосил бериб бўлган шохларни ёшартириш мақсадида олма дарахтининг бир йиллик новдалар сони Голден Демишес навида 9-28% ва Первенец Самарқанд навида 10-27% гача камайгани кузатилди.

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, олма дарахтини асосий кўрсаткичи бу бир йиллик новдаларни ўсиш узунлиги, бу кўрсаткич тадбир ўтказилган вариантларда назоратга нисбатан Голден Демишес навида 11-33%, Первенец Самарқанд навида 20-31% гача ошганлики аниқланди.

Интенсив олма боғларида жарахтларга шакл бериш ва кесиш даражаларига амал қилиб, ҳар бир дарахт шохлари ярусларида барг сатҳини тўғри жойлаштириш орқали фотосинтез маҳсулдорлигини оширишдан иборатдир.

Шундай тўлиқ ёритувчанликнинг очик майдонлардаги мақбул даражаси 50-70% ҳисобланади. Нурланишнинг меъёрий даражасини айрим вақтларда ўшириш ёки пасайтириш ҳисобига фотосинтез жараёни меъёр даражасида ўтади. Баргнинг ассимиляцион юза қисмига асосан навнинг биологик хусусиятлари, ёшартирувчи кесиш усули ва даражалари ҳамда ҳосил бериб бўлган, ўсувчи шохларнинг циклик алмашинувининг давомийлиги таъсир қилади. Энг юқори фотосинтез соф маҳсулдорлик дарахт танасининг энг баланд новдаси жойлашган баргларда аниқланиб, энг паст кўрсаткич эса дарахт танасининг марказий қисмида жойлашган баргларда кузатилди ва назоратга нисбатан 0,10-1,25 г гача кўпайди.

Тадқиқот йиллари давомида ўртача ҳосилдорлик ҳосил бериб бўлган шохларни ўриндош сифатида 3-4 йиллик цикл билан ёшартирган ва 4-16 дона ҳосил куртак қолдириб кесилганда олмани Голден Демишес навида 0,1-4,0 ц.гача Ренет Симиренко навида 0,9-3,5 ц.гача Первенец Самарканда навида эса назорат вариантыга нисбатан 0,6-3,1 ц.гача ҳосил ошган. Бу вариантларда Голден Демишес навида 41-56 б, Ренет Симиренко навида 16-35 г ва Первенец Самарканда навида 35-49 г. гача ошади.

Шунингдек, боғдорчилик соҳасини юқори иқтисодий кўрсаткичларга кўтариш учун мавжуд ресурслардан самарали фойдаланиб, интенсивлаштириш, юқори савия кўрсаткичларга эришиш ҳамда хўжалик цўналишини бозор иқтисодиёти шароитида мослаштириш лозим бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Артикова Х.Т., Юнусов Р.Ю., Салимова Х.Х., Климатические условия и растительность субтропические условия и растительность субтропической теплой и жаркой пустыни. ВКН.: Проблемы рекультивации отходов быта промышленность и сельскохозяйственного быта, 215,217,222 стр.
2. Yunusov R. Ganiyeva F.A. (2021) Studying the different formations of apple trees in intensive orchards//. CENTRAL SCIENTIFIC PUBLICATIONS (buxdu.uz), 6(6). [In Rus].

3. Ganiyeva F.A. (2021). ECONOMICAL. INNOVATIVE BASIS FOR THE CARE OF INTENSIVE STUDENT APPLE VARIETIES// CENTRAL SCIENTIFIC PUBLICATIONS (buxdu.Uz), 6(6). Извлечённоще резы://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/3375

4. Yunusov R. Ganiyeva F.A. (2021). Crowth and development of vegetatively propagated rootstocks of apple trees depending on planting dencity.//Capital of Science”)]In Rus].

5. Atayeva Z., Yunusov R., Nazarova S., Ganiyeva F.A. (2020). INFLUENCE OF CULTIVAR COMBINATIONS AND SEEDLING THICKNESS ON THE FORMATION OF PHYTOMETRIC INDICATORS ANDPRODUCTIVITY OF PER TREESS IN INTENSIVE ORCHARDS.//

6. Ganiyeva F.A. “GROWN AND FRUITTING OF PEACH TREES IN IRRIGATED GARDENS DEPENDING IN THE CROWN DESIGH//. CENTER FOR SCIENTIFIC PUBLICATIONS)]In Rus].

7. Ganiyeva F.A. “IMPACT OF SOUL SALINATION ON THE ECOLOGICAL STATE OFIRRIGATED LANDS AND PHYSIOLOGICAL PROCESSES OCCURING IN PLANTS.//CENTER FOR SCIENTIFIC PUBLICAIONS (buxdu.uz.) 6.6 920210.]In Rus].

8. Ganiyeva F.A. Dependences, growth, development and fruiting of apple trees, depending on the method and degree of pruning in the conditions of the Bukhara region. //CENTER FOR SCIENTIFIC PUBLIKATIONS (buxdu.uz.) 6.2 (2020.)]In Rus].

9. Ganiyeva F.A. “Protection of orghards from pests and diseases of intensive prghards in the Bukhara region” //CENTER FOR SCIENTIFIC PUBLIKATIONS (buxdi.uz) 6.6 (2021). JOURNAL).]In Rus].

O'ZGARUVCHAN SOHALI YARIMO'TKAZGICHLI BIRIKMALARNI O'STIRISH VA FOTOELEKTRIK XOSSALARINI O'RGANISH

Risboyev T, Ashirov Sh, Saparova G

Annotatsiya

Ushbu ishda o'zgaruvchan soxali yarimo'tkazgich xossasiga ega bo'lgan birikmalarni qalayninig cheklangan xajmli eritmasidan suyuq fazasidan epiktaksiyalash usuli bilan monokristall epiktaksial pardalarni o'stirish texnologiyalari va bu o'rinbosar qattiq qotishmalarning sirtli tuzulishini , xamda ularning spektral fotosezgirliigi va volt-amper xarakteristikalari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Quyosh energiyasi,yarimo'tkazgichlar, kremniy, elektr energiya, foydali ish koeffisiyenti

Kirish

Quyosh energiyasi birinchi marta to'g'ridan- to'g'ri elektr energiyasiga foydali ish koeffesiyenti (FIK) ancha yuqori bo'lgan yarimo'tkazgizli fotoelektrik o'zgarishlar yordamida ishlanadi .Keyinchalik bu o'zgarishlar quyosh elemetlari (QE) deb atala boshlandi. Qisqa vaqt ichida quyosh fotoelektri xaqidagi fan kata yutuqlarga erishdi: kremni elementi birikmalari asosida yaratildilgan . Quyosh fotoelektrik generatorlari Yer sunniy yo'ldoshlarida yoki avtanom metrostansiyalarni energiya bilan taminlashda yagona energiya manbai bo'lib xizmat qila boshladi.

Inson bilan uchirilgan kosmik kemalar, xalqaro planetalararo stansialar oyga uchirilgan qurilmalar shu jarayonida sezilarli miqdordagi elektr energiyasini talab qiladi. Bundan jarayondagi noodatiy ish xolatli Yer sharoitida ishlatilgan odatiy elektr energiyasi manbalarini ishlatishga imkon bermaydi.Bunday xolatlarda elektr energiyasi xosil qiluvchi sistemalardan quyosh energiyasini o'zgartiruvchi

yarimo'tkazgichli o'zgartirgichlar avtomatika elementlari va energiya jamga'ruvchi kimyoviy qurilmalar (akkumulyator, batereya) dan foydalanib kelmoqda.

Shu asosda yaratilgan energiya ta'minoti sistemasi turli maqsadlarda uchirilgan kosmik apparatlarida ishlatilgan davrda quyosh energiyasini yarimo'tkazgichli fotoelektrik o'zgartirgichlar bilan energiyasiga o'zgartirish soxalarida sezilarli yutuqlarga ham erishdi.

Yarimo'tkazgichli materiallar olish texnologiyasining takomillashi, aralashmalardan yuqori darajada tozalangan turli xildagi yangi yarimo'tkazgichli materiallarning olinishi, yarimo'tkazgich asboblarda sodir bo'ladigan jarayonlar nazaryasining yutuqlari ketingi yillarda quyosh energielektr energiyaga o'zgartiruvchi yarimo'tkazgichlarning foydali ish ko'ffisiyenti (FIK) ancha oshirish imkonini yaratdi.

Yarimo'tkazgichlarning ish jarayoni quyosh nurining yarim kristali bilan o'zaro tasiriga moslashgan. Bunda nurlanish fotonlari kristalda erkin elektronlar, yani elektr zaryadlarini xosil qiladi. Yarimo'tkazgichlar maxsus hosil qilingan va kuchli elektr maydoniga ega bo'lgan p-n o'tish deb ataluvchi soxa elektronlarni ajratib qarama – qarshi ishorali zaryadlangan qismlarni hosil qiladi. Bu qismlar tashqi zanjirga ulanganda zanjirda tok xosil bo'ladi va istemolchilarga sezilarli miqdordagi elektr energiya beradi.

Quyosh elementlari kosmosga ishlatilganda ularga qat'iy talablar qo'yiladi. Ular kata miqdorda elektr energiyasini xosil qilishi uchun imkon boricha ko'proq yorug'lik energiyasini ketishi kerak, shu bilan birga qizib ketmasligi, quyosh nurlanishining ultrabinafsha sohasi nurlanishi va eletrolitlar oqimi tasiriga bardoshli bo'lishi kerak.

Fotoelektrik batereyalarning keying avlodlari yer sharoitida ishlovchi fotoelektrik elektrostansiyalarni yaratishda muvaqqiyotli ishlatilmoqda. Zamonaviy quyosh batereyalarning 1m^2 yuzasidan ochiq ob –havo sharoitida 100 dan 200 Vt gacha elektr quvvatini olish mumkin. Bunda atrof muhitning zararli kimyoviy

moddalar, energiya ishlab chiqarishdagi qoldiq issiqlik va xakozalar bilan ifloslanish sodir bo'lmaydi. Quyosh batareyalari, so'zsiz, eng toza energiya manbai xisoblanadi.

Quyosh energiyasidan foydalanishdagi amaliy yutuqlar bilan birga, uni bevosita elektr energiyasiga aylantirishning nazariy asoslari bo'yicha xam anchagina rivojlanishga erishildi. Jumladan, nazariy hisoblashlar bilan fotoelektrik usul bilan quyosh energiyasini o'gartirishning FIK ni 93% ga yetkaish mumkinligi aniqlandi. Vaholanki, quyosh energiyasini fotoelektrik o'zgartirishning dastlabki davrlarida bu raqam 26% da oshmaydi deb baolanar edi. Bu ko'rsatgich tiklanmas energiya manbalari bilan ishlaydigan yuqori xaroratli issiqlik mashinalarining FIK dan ancha past bo'lib, energetika mutaxasislari tamonidan, gaz, neft va ko'mir energiyasini asosiy manbalari deb xisoblanib, ularning zaxiralari kamayib borish kelajakda insoniyat energiya tanqisligiga duch keladi, deb qarashlar mavjud edi. Lekin fan tarixida necha martalab quyosh energiyasini to'g'ridan to'g'ri elektr energiyasiga aylantiruvchi qurilmalarning FIK ni to'g'risidagi nazariy nazariy bashoratlar amalda ham tasdiqlanish shubhasiz. Bunga misol qilib nazariy ishlardan so'ng ko'p o'tmay FIK 30% atrofida bo'lgan yarimo'tkazgichlar asosidagi kaskadli quyosh elementlari yaratilishini ko'rsatish mumkin.

Yuqori FIK ega bo'lgan zamonaviy quyosh fotoelementlarida energiyani o'zgartirish jarayoni bir jinsli bo'lmagan yarimo'tkazgichli tuzilmalarda quyosh nuri tasirida sodir bo'ladigan fotovolt xodisasiga asoslangan. Quyosh elementli tuzulishidagi bir jinsli bo'lmagan xolatlar asosan uch usulda xosil qilinadi:

1. p-n o'tishni xosil qilish. Bunda bir xil o'tkazuvchanlikga ega bo'lgan qismi ustida uning qarama – qarshi o'tkazuvchanlikga ega bo'lgan qismi xosil qilinadi. Bu usulda p-n o'tishni hosil qilishda masalan n-tip planitasi ustiga alyuminiy parchasi qo'yilib vodorod muhitida 5000 gacha qizdirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2. Geteroo'tishlar hosil qilish. Bunda taqiqlangan soxasi kengligi turlicha bo'lgan , yarimo'tkazgichlar birining ustiga ikkinchisi o'stiriladi. Bundan murakkab tarkibli strukturada p-n o'tish ikki qatlam oralig'ida , odatda pastki taqiqlangan sohasi kichik

bo'lgan yarimo'tkazgichlar tamonda joylashgan bo'ladi .Bu usulda yarimo'tkazgichlar quyosh elementlari geteroo'tishli fotoelementli deb ataladi.

3. Varizon tuzulishli yarimo'tkazgichli qatlamlarni xosil qilish. Bu xolda biron yarimo'tkazgichlar kristallni o'stirish jarayonida uning kimyoviy tarkibi o'zgartirib boriladi va yo'l bilan taqiqlangan soxasi o'zgartirib boruvchi yarimo'tkazgichlar qatlami hosil qilinadi.

Yarimo'tkazgichli fotoelektrik o'zgartirgichlarning xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan va ilmiy va amaliy tadqiqot ishlari fotoelektrik energetika uchun murakkab tuzulishli yarimo'tkazgichlarning kelajagi porloq ekanini tasqiqlaydi. Quyosh energiyasi o'zgartirish samaradorligi, asosan ularning elektrofizik xarakteristikalari va optik xossalariga bog'liq. Bu xossalar bir jinsli bo'lmagan yarimo'tkazgichli birikmalarni tayyorlash jarayonlari bilan aniqlanadi. Dastlab bu birikmalar $A^2 B^6$ va $A^3 B^5$ tuzilmalar va ularning qattiq qotishmalari keng ko'lamda ishlay oladigan yarimo'tkazgichli asboblari tayyorlashda asosiy material hisoblanadi. Lekin bu birikmalarda ishlatiladigan maqsadga muvofiq emas. Nur ta'sirida ishlaydigan elektron asboblarning faol ish sohasi o'lchamlari bir necha mikrometr tartibida bo'lgani sababli yarimo'tkazgichli birikmalarni miqdori ko'p va arzon bo'lgan materiallar kremniy monokristalli asosidagi tagliklarda o'stirish va tayyorlash imkoniyatlari mavjud .

Ushbu ishda kremniy asosidagi tagliklarda yarimo'tkazgichli geterotuzulishli qatlamlarni o'stirish va ularning tuzulishini xususiyatlarini xamda elektrik va optic xossalarini o'rganish bo'yicha olingan malumotlar keltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (BMTTD) ning —O'zbekistonda qayta tiklanadigan Energetikani rivojlantirish istiqbollari ma'ruzasi (Toshkent, 2007 y.), —Muqobil energiya manbalari: O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari (Toshkent, 2011).

KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI NUTQ NUQSONLARINI BARTARAF ETISHDA MUHIM OMIL SIFATIDA

Abduvaitova Ozoda Omon qizi

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Defektologiya - Logopediya
yoʻnalishi II - kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq nuqsonlarini bartaraf etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, multimedia vositalarini logopedik mashgʻulotlarda qoʻllash, logoped xonasini zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan jihozlash, kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning nutq nuqsonlarni bartaraf etishga tasiri ifodalangan.

Kalit soʻzlar: Multimedia, nutq, buzilish, axborot, texnologiya, tovush, talaffuz, oʻyin, metod.

Annotation: This article describes the use of computer technology in the treatment of speech defects, the use of multimedia in speech therapy, equipping the speech therapist's room with modern computer technology, the impact of the use of computer technology on speech defects.

Bugungi kunda eng dolzarb boʻlgan muammolardan biri, yaʼni rivojlanishida nuqsoni boʻlgan, ijtimoiy himoyaga muxtoj bolalar bilan bogʻliq muhim vazifalar va tizimdagi holat xususidagi masaladir.

Bugungi kunda fan va texnologiya taraqqiyoti jadal rivojlanib bormoqda. Hayotimizni texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyinlashmoqda. Hayotimizning har bir sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalari kirib kelmoqda. Har bir sohada axborot texnologiyalarining keng qoʻllanilayotganligini va ular natijasida yuksak natijalarga erishilayotganligini guvohi boʻlmoqdamiz. Shu jumladan taʼlim tizimida ham

texnologiyalardan foydalanish yolga qo'yilmoqda. Bu esa ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishga hizmat qilmoqda.

Yurtimizda ta'lim tizimini isloh qilish maqsadida ko'pgina qarorlar, farmonlar qabul qilinmoqda. Bunday qarorlar, farmonlar asosiy maqsad ta'limni samarali yo'lga qo'yishdir. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoniga ko'ra "2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "harakatlar strategiyasi" qabul qilindi. Mazkur harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlanib, uning to'rtinchi bandi "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" deb nomlandi. Ushu bo'limda ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash kabi vazifalar belgilab olindi. Shu vazifalarni inobatga olib bugun yurtimizdagi barcha ta'lim tizimlari axborot - kommunikatsion texnologiyalar, multimedia vositalari bilan taminlanmoqda.

Bugungi kunda ta'lim sohasiga axborot texnologiyalarini joriy etish shart va zarurdir. Dars davomida kompyuter texnologiyalari, multimedia vositalaridan foydalanish ijobiy natija beradi. Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samarali natija berganidek nutq nuqsonlarini bartaraf etishda ham axborot texnologiyalaridan foydalanib ijobiy natijalarga erishish mumkin. Logoped qabuliga kelgan bola bilan birinchi navbatda qiladigan ishi bolaning qanday nutq nuqsonga ega ekanligini, yoki qaysi tovushni talaffuz etolmasligini aniqlash hisoblanadi. Chunki bolaga to'g'ri tashxis qo'yish nutq nuqsonini bartaraf etishning asosiy usuli hisoblanadi. Bugungi kunda bolaning nutqini tekshirishda logopedik albomlardan, kesma suratlardan foydalanamiz. Bolaga turli suratlarni ko'rsatib uning nima ekanligini so'raymiz. Mazkur usullardan ko'ra, bola nutqini tekshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Logoped o'z mashg'ulotlari davomida ko'rgazmali qurollar, didaktik o'yinlar, multimedia vositalaridan foydalanishi bolalarda mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini

yanada oshiradi. Bizga ma'lumki har bir logoped nutq nuqsonini bartaraf etishga qaratilgan mashg'ulotni olib borar ekan dastlab bolalar albatta artikulyatsion mashqlarni bajaradilar. Bugungi kunda ko'p hollarda mashg'ulot davomida logoped o'qituvchi artikulyatsion mashqlarni turli tasvirlarga qarab bajarishni so'raydi. Mana shu holatni artikulyatsion mashqlar bajarilishi ko'rsatilgan multimedia vositalaridan foydalangan holda olib borilsa, ijobiy natija beradi va o'quvchi ana shu multimedia orqali mashqlarni bajaradi. Turli rasmlardan foydalanganimizda artikulyatsion mashqlarning ma'lum bir holati tasvirlanadi, multimediyada esa mashqlarning bajarilishi umumiy holatda ko'rsatiladi. Bu esa o'quvchilar tomonidan mashqlarning bexato bajarilishini taminlaydi.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalari esa bolalarning ana shu qiziqishlari orqali nutq nuqsonini bartaraf etishga xizmat qiladi. Nutq nuqsonlarini bartaraf etishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari:" Bolada mavjud bolgan nutq kamchiligini aniqlashga yordam beradi;" Ma'lumotlarni jozibali ifodalashga imkon beradi;" Bolalarning logoped mashg'ulotiga qiziqishini oshiradi;

Yurtimizda ham mana shunday yutuqlarga erishish, multimedia markazlari bilan hamkorlikda multimedia manbalarini tayyorlash va uni amaliyotga joriy qilish usullarini ishlab chiqish logopedlarning oldida turgan vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha farmoni". Toshkent 2017.

2. T.S.Safarov, Sh.U.O'roqov, R.R.Baxromov Informatika va axborot texnologiyalari "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Toshkent-2006.

3. Begimqulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish "Pedagogik ta'lim" , № 1, 2004. 25- bet.

4. Инсия Ахметова " информационные технологии в работе учителялогопеда" статья г. Светогорск.

5. G. Karimova AKT bolalar nutqini rivojlantirish vositasi sifatida? Infocom.uz internet nashri 2011-y.

6. Akramova, X. (2020). Aqli zaif ўқувчиларни компьютер технологиялари асосида меҳнат кўникмаларини шакллантириш. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-9. извлечено от https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4013.



UO‘T: 634.1.03/631.54

OLMANI GEOGRAFIK KELIB CHIQISHI VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Axmadjonov Avazbek Akmaljon o‘g‘li, mustaqil tadqiqotchi

Ibragimov Odiljon Olimjonovich q.x.f.d., professor

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich., q.x.f.f.d (PhD)

FarDU Mevachilik va sabzavotchilik kafedrası

Email: idrisovhusanzon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada olmaning geografik kelib chiqishi va biologik xususiyatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bayon etilgan bo‘lib, tadqiqotlar taxlil qilingani bilan yanada ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: olma, meva, nav, oziq-ovqat, shox, xosil, ko‘chat.

So‘nggi 20 yil ichida dunyo miqyosida meva-sabzavot yetishtirish va iste‘mol qilish sur‘atlari yiliga o‘rtacha 5-7 % ga ortib bormoqda. O‘zbekiston nafaqat o‘z aholisini meva-sabzavot mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondiribgina qolmay, balkim ko‘plab qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilib, bu sohada salmoqli potensialga ega.

Respublikada yiliga 22 million tonnadan ortiq meva-sabzavot, poliz mahsulotlari yetishtirilib, ularning 850 ming tonnaga yaqin qismi eksportga chiqariladi. Hozirgi vaqtda Respublikada 160 mingdan ortiq fermer ho‘jaliklari faoliyat olib borib, ular ichki va tashqi bozorni sifatli meva-sabzavotlarga bo‘lgan talabini qondirib borishmoqda. Soxa transport infrastrukturasi rivojlanib bormoqda, shu bilan bir vaqtda uyg‘un logistika tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha ishlar olib

borilib, sektorni eksport potensialini o'sishini ta'minlab beruvchi tashqi savdo aloqalari kengaymoqda.

Aholini va ijtimoiy soha obyektlarini, ayniqsa qish-bahor davrida meva-sabzavot mahsulotlari bilan ishonchli, kafolatli ta'minlash uchun zarur bo'lgan zamonaviy sovitish asbob-uskunalari bilan jihozlangan saqlash joylarining moddiy-texnika bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, shuningdek meva-sabzavot mahsulotlarini eksportga yetkazib berishni kengaytirish ishlari yil sayin rivojlanib bormoqda.

Olma mevalar ichida yetakchi o'rin egallaydi. Olmani aholi yil davomida sevib iste'mol qiladi. Oziq-ovqat sanoatida olmadan shirinliklar, har xil qandolat mahsulotlari tayyorlashda ishlatiladi. Pishib yetilgan mevasidan sirop tayyorlanadi, ko'chat yetishtirish uchun urug' tayyorlanadi. Olma daraxtlari Respublikamizning hamma zonalarida ham yaxshi o'sadi va mo'l hosil berish xususiyatiga ega. Dengiz sathidan 200-250 metrdan 1100-1200 metr va undan ham baland joylarda olmaning ko'p yovvoyi formalari, madaniy olmaning ertagi, o'rtagi va kech pishadigan navlari tarqalgan. Ular har xil ob-havo va tuproq sharoitiga ham moslashib, ko'p yil yashaydi. Olmaning eng yaxshi biologik va xo'jalik xususiyatlaridan biri daraxtning boshqa meva turlariga va xillariga nisbatan sovuqqa, sho'rga chidamliligidir.

Olma daraxtlari O'zbekistonda xilma xil bo'lib, ular Qoraqalpog'istonning sho'rxok va yer osti suvi yuza joylashgan yerlarida bir joyda 50-60 yil yashab mo'l hosil bersa, Tyanshanning 1100-1200 metr balandlikdagi yon bag'irlarida o'sib shirin-shakar mevasi rang-barang bo'lib yetilmoqda. O'rmonzorlarda o'sadigan kuchli o'suvchi daraxtlardan terib olinadigan mevalardan tayyorlanayotgan urug' madaniy olma navlarini yetishtirishda ko'plab ishlatiladi. Yovvoyi va madaniy mevalardan tayyorlangan urug' o'sib chiqish xususiyatlarini bir necha yil yo'qotmaydi. Ko'chat yetishtirishda va yangi olma navlarini yaratishda urug'larni uzoq saqlash ham katta ahamiyatga ega. Olma daraxtlarining uzoq umr ko'rishi va baquvvat bo'lib o'sishi, hosilga kirishi, mevalarining yirik yoki mayda bo'lishi u qanday payvandtagda o'stirilishiga va tuproq, iqlim sharoitiga hamda parvarish qilish

usullariga bog'liq. Masalan, olmaning yovvoyi Sivers nihollariga Rozmarin, Renet Simirenko, Kandil sinap, Zolotoya Grayma kabi navlar payvand qilib o'stirilsa, ular doimiy boqqa ekilganida madaniy olma daraxtlari kuchli bo'lib o'sadi, 5-6 yildan boshlab hosilga kira boshlaydi, 8-10 yili to'liq hosilga kiradi, daraxtlarining balandligi 15-20 metrga yetadi. O'zbekistonning turli zonalaridagi ob-havo va tuproq sharoitiga qarab, fevral oyining oxiri — martning boshlarida olma daraxtlarida shira harakati boshlanadi. Mahalliy, Sibir va Xitoy olma daraxtlari barvaqt o'sa boshlab, oktabr-noyabr oylarida o'sishdan to'xtaydi. Ko'pgina olma navlari kuz issiq kelib, uzoq cho'zilganda kech kuzgacha o'sishda davom etadi. Mahalliy olmalar o'sishdan erta to'xtaydi. Yevropadan keltirilgan navlar o'sishni uzoq davom ettiradi. O'zbekiston sharoitida olma daraxtlarining o'sishi 200-220 kun davom etadi.

Olma aprel oyida gullaydi va bu jarayon 9-16 kun davom etadi. Erta gullash 23-25 martdan, eng kech gullash esa 25-27 apreldan boshlanadi. Tog'li rayonlarda meva daraxtlari tekislikdagilarga nisbatan 7-15 kun kech gullaydi. Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan hamma olma navlari serhosil hisoblanadi. Olma urug'dan, qalamchadan va kurtak payvand qilish yo'li bilan ko'paytiriladi.

Past bo'yli olma turlari parxesh qilish, qalamchali hamda ildizlari ekilganda ko'karish (ildiz otib) xususiyatiga ega. Butoqlar va shoxlarning hammasi daraxtning shox-shabbasini tashkil etadi. Ular o'suv va hosil shoxlaridan iborat. Hosil shoxlari gul kurtak chiqaradi va keyin ulardan meva paydo bo'ladi. Ba'zi olma daraxtining bir yillik novdalari ham gul kurtak chiqaradi, bu hol ko'pincha tez hosilga kiradigan va har yili hosil beradigan navlarda uchraydi. Olmaning hosil shoxlari uch xil bo'ladi. Halqali shox (kolchatka) eng qisqa bo'lib, uzunligi 3-5 sm ga yetadi. Ikkinchisi nayza shox (kopyetso) deyiladi, uning bo'yi 5-15 sm bo'ladi. Uchinchisi chiviqsimon shox (prutik) bo'lib, bo'yi 15-25 sm keladi. Hosil shoxining uchida meva kurtaklari bo'ladi. Ulardan 4-10 ta gul chiqadi. Olma daraxtining asosan oddiy va murakkab halqali shoxlari meva tugadi. Ba'zan chiviqsimon shoxlar ham meva tugishi mumkin. Bo'lar daraxtning navi va o'sish sharoitiga qarab, 515 yil hosil berishi mumkin. 8 yildan keyin xalqali shoxlarning hosili kamayadi. Hosil shoxlari quriy boshlagandan

keyin shox-shabbaning orasi sezilarli darajada siyraklashadi va yuqori tomonidan yangilari hosil bo'ladi.

Ko'chat yetishtirishda va yangi olma navlarini yaratishda urug'larni uzoq saqlash ham katta ahamiyatga ega. Olma daraxtlarining uzoq umr ko'rishi va baquvvat bo'lib o'sishi, hosilga kirishi, mevalarining yirik yoki mayda bo'lishi u qanday payvandtagda o'stirilishiga va tuproq iqlim sharoitiga hamda parvarish qilish usullariga bog'liq. Masalan, olmaning yovvoyi Siversa nihollariga Rozmarin, Renet Simirenko, Kandil sinap, Zolotoye Grayma kabi navlar payvand qilib o'stirilsa, madaniy olma daraxtlari kuchli bo'lib o'sadi, 5-6 yildan boshlab hosilga kira boshlaydi, 8-10-yili to'liq hosilga kiradi, daraxtlarining balandligi 15-20 metrga yetadi.

O'zbekistonning turli mintaqalarida ob-havo va tuproq sharoitlariga qarab fevral oyining oxiri, martning boshlarida olma daraxtining shira harakati boshlanadi.

Mahalliy Sibir va Xitoy olma daraxti o'sish davrini barvaqt boshlab, oktabr-noyabr oylarida o'sishdan to'xtaydi. Ko'pgina olma navlari kuz issiq kelib cho'zilganda, o'sishni kech kuzgacha davom ettiradi.

Mahalliy nav olmalari o'sishdan erta to'xtaydi. Yevropadan keltirilgan navlar o'sishni uzoq davom ettiradi. O'zbekiston sharoitida olma daraxtining o'sishi 200-220 kun davom etadi.

Olma daraxtlari aprel oyida gullaydi, bu jarayon 9-16 kun davom etadi. Erta gullash 23-25-martdan, eng kech gullash 20-25 apreldan boshlanadi. Tog'li rayonlarda mevali daraxtlar tekislikdagilariga nisbatan 7-15 kun kech gullaydi.

Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan barcha olma navlari serhosil hisoblanadi. Olma daraxtlari Toshkent viloyatining tekisliklarida joylashtirilgan rayonlarida qishni sovuqlarida ko'proq zarar ko'radi. Olma daraxtlarining sovuqdan zararlanishi farg'ona vodiysida kamroq, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida esa undan ham kam.

Ayniqsa kuz iliq kelib cho‘zilgan yillari o‘sov davri oktabr-noyabr oylarigacha davom etadi. Daraxtlar qishga yaxshi tayyorgarlik ko‘ra olmaydi, natijada qishning sovuqlaridan ko‘proq zararlanadi.

Keyingi 52 yil ichida Toshkent viloyatida olma daraxtlari sovuqdan 8 marta zararlandi. Kuzatish natijalari Baykal, Renet Semerinno, Renet Orleanskiy, Zolotoye Groyma, Renet Shampanskiy, Parmen Zimniy zolotoy navlarining sovuqqa chidamsiz ekanligi aniqlandi. Bely nomer, Persinovoy letneye, Razmarin, Kondil siian, Moituaner Borovinasi, Toshkent reneti navlariesa sovuqdan kam zararlanadi.

Duan unchalik katta bo‘lmagan daraxt bo‘lib, bo‘yi 4-6 metr keladi, ildiz bachki novdalar bermaydi, lekin ildiz bo‘g‘izidan novdachalar o‘sib chiqadi. Novda va shonchillarning qoramtir va tim qora rangda bo‘lib, bu dog‘lar bilan qoplangan. Ekilgandan keyin 3-4 yildan boshlab hosilga kiradi. Sovuqqa paradizaga nisbatan ancha chidamli. O‘shishdan ancha erta to‘xtab, kuzgi sovuqlar boshlanguncha sovuqqa bardosh bera oladigan bo‘lib qoladi.

(1-jadval).

Olma navlarining O‘zbekiston sharoitida hosilga kirishi

(Akademik R. R: Shreder nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi ma’lumoti)

Kuchli payvandtaglarda o‘stirilgan olma turlari va navlari	Ko‘chat o‘tqazilgandan keyin hosilga kirishi (yil)	To‘liq hosil berish boshlashi (yil)
Olma ertapishar navlari	6— 7	9 — 10
Kuzgi va qishki navlar	7— 8	10 — 12
Rozmarin	9 — 10	12 — 14
Kandil sinap	10 — 12	15 — 16
Mantuaner	10 — 12	15 — 16
Sari sinap	10-12	15 — 16

Paradizitna sust o'sadi, uzoq yashamaydi. Ildiz atrofi zonasidan ildiz bachkilari o'sib chiqadi. Novda va shoxlari ingichka och yashil va och qizg'ish qo'ng'ir rangda. Dusenga nisbatan barvaqt hosilga kiradi, mevasi yirik va shirin bo'ladi.

V. Michurin o'zining butun hayoti davomida mevali daraxt va rezavor mevalarni 300 ta yangi navlarni yaratadi. U odam o'simliklarning yangi navlarini tabiatdan ham yaxshiroq yarata bilish va yaratish kerakligini, shuningdek biz tabiatdan in'om-ehson kutib tura olmasligimizni, ana shu in'om-ehsonni tabiatdan olish bizning vazifamiz ekanligini ta'kidlab o'tgan edi. Michurinning shogirdlari o'simlikni yangi tur va navlarini yetishtirishdan o'z ustozlarining ta'limotlarini yanada rivojlantirmoqdalar.

O'zbekistonda yetishtirilgan meva navlarini butun dunyoga mashhur bo'lib, bu navlarni ko'pchilik mamlakatlarda yetishtirish sohasida ilmiy ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILAN ADABIYOTLAR

1. Buriev X.CH., Rizaev R.M. "Meva va uzum bioximiyasi va texnologiyasi" T.: Mehnat 1998.
2. Bo'riev H CH., Jo'raev R., Alimov O. Meva sabzavotlarni saqlash va daslabki ishlov berish. – T.: Mehnat, 2002. – 45-56 b.
3. Dospexov B.A. Metodika polevogo opita. - M.: Kolos, 1985. - 317 s.
4. Dala tajribalarini olib borish metodikasi O'zPITI.2007 yil.
5. Idrisov, X. A., & o'g'li soliyev, a. M. (2022, may). Sug 'oriladigan maydonlarda mosh (*Phaseolus aureus piper.*) Navlarining tavsifi. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 7, pp. 17-23).
6. Idrisov, X. A., Atabayeva, X. N. (2022, may). Loviya va mosh ekinlarining umumiy ahamiyati va biologik xususiyatlarini tahliliy o'rganish. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 8, pp. 644-651).
7. Xalima, A., Xusanjon, I., & Abdulvosid, S. (2022). O 'tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus piper*) ning o 'sishi, rivojlanishi va don hosildorligi. *Research and education*, 1(2), 373-381.

8. Xusanjon, I., & Abduxolik, K. (2022). Moshning yangi navlarini yaratishda seleksiya ko'chatzorida o'tkazilgan tadqiqotlar. *Research and education*, 1(4), 50-56.

9. Abdujabborovich, I. X., Ozodbek, A., Nodirbek, X., & Abrorbek, a. (2022). Sug'oriladigan maydonlarda mosh (*Phaseolus aureus* Piper) navlarining simbiotik faoliyatiga ekish muddati va me'yoring ta'sirini o'rganish. *Science and innovation*, 1(1), 615-624.

10. Abdujabborovich, I. X., o'g'li, u. X. I., qizi, a. D. A., qizi, y. M. N., & ogli, m. A. A. (2022). Tipik bo'z tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus* Piper) navlarini tadqiq etish. *Science and innovation*, 1(d2), 160-165.

11. Abdujabborovich, i. X. (2022). Qozoqi anorning biologik xususiyatlari. *Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, 2(13), 396-400.

12. Idrisov, X. A., & o'g'li Soliyev, a. M. (2022, may). Sug'oriladigan maydonlarda soya etishtirish texnologiyasini takomillashtirish. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 7, pp. 286-295).

13. Abdujabborovich, i. X., & Gofurovna, r. F. (2022, may). Soya (*Glycine hispida* L) ning biologik xususiyatlari va tashqi muxit omillari. In *e conference zone* (pp. 1-5).

14. Abdujabborovich, i. X., & teshaboyev, a. (2022). Soyaning kolleksiya ko'chatzorida samarali va maqsadli foydalanishning ilmiy ahamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 286-290.

15. Abdujabborovich, i. X., & o'g'li, x. A. M. (2022). Sholi seleksiyasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalarini tahliliy o'rganish. *Science and innovation*, 1(d3), 276-281.

16. Abdujabborovich, i. X., o'g' p. J. G. A., o'g'li, e. K. E., & o'g, d. O. N. M. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratishda nav namunalariidan samarali va maqsadli foydalanishning ahamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 269-275.

17. Abdujabborovich, i. X., & Mirzamaxsudavich, b. R. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar. *Science and innovation*, 1(1), 776-785.

18. Idrisov, x. A. (2022, june). Osiyo loviyasi-mosh (phaselus aureus piper.)—biologik xususiyatlari. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 9, pp. 144-148).

19. Abdujabborovich, i. X., o'g'li, u. X. I., qizi, a. D. A., qizi, y. M. N., & ogli, m. A. A. (2022). Tipik bo'z tuproqlar sharoitida mosh (rhaseolus aireus piper) navlarini tadqiq etish. *Science and innovation*, 1(d2), 160-165.

20. Abdujabborovich, i. X., & teshaboyev, a. (2022). Soyaning kolleksiya ko'chatzoridan samarali va maqsadli foydalanishning ilmiy ahamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 286-290.

21. Idrisov, x. A., & karimov, a. A. (2022, july). Mosh (phaselus aureus piper.) Dan yuqori hosil olishda agrotexnik omillarning ahamiyatimosh (phaselus aureus piper.) Dan yuqori hosil olishda agrotexnik omillarning ahamiyati. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 11, pp. 106-111).

22. Xusanjon, i., & abduxolik, k. (2022). Moshning yangi navlarini yaratishda seleksiya ko'chatzorida o'tkazilgan tadqiqotlar. *Research and education*, 1(4), 50-56.

23. Abdujabborovich, i. X., o'g' p. J. G. A., o'g'li, e. K. E., & o'g, d. O. N. M. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratishda nav namunalariidan samarali va maqsadli foydalanishning ahamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 269-275.

24. Abdujabborovich, i. X., & mirzamaxsudavich, b. R. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar. *Science and innovation*, 1(1), 776-785.

25. Idrisov, x. A., & o'g'li soliyev, a. M. (2022, may). Sug'oriladigan maydonlarda mosh (phaselus aureus piper.) Navlarining tavsifi. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 7, pp. 17-23).

munosib ravishda yuqori baholanmoqda. Joriy yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 8,0 foizga o'sdi. Davlat byudjeti profitsit bilan ijro etildi. Inflatsiya darajasi prognoz parametrlardan oshmadi. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni rag'batlantirish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga doir kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yil sayin oshib, 53,3 foizdan ko'proqni tashkil etmoqda. So'nggi yillarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi oshib bormoqda. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi o'zbek xalqining asriy orzularining amalga oshishiga va mamlakatimizning yuksalishiga, iqtisodiyotimizning kompleks rivojlanishiga, uning tarkibini kengaytirishga va takomillashtirishga, xalq farovonligini oshirishga va aholining erkin, farovon xayot kechirishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Ma'lumki, sobiq SSSR da umumittifoq mehnat taqsimoti ta'sirida har bir iqtisodiy rayon va har bir ittifoqdosh respublika ma'lum bir kompleksga ixtisoslashgan edi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti paxta kompleksiga ixtisoslashgan edi va bu yerda paxta ishlab chiqarish, uning mahsulotlarini qayta ishlash va unga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar rivojlangan edi. Shuning uchun, respublika iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanganligi natijasida, sobiq ittifoq respublikalari orasidagi kooperatsiya aloqalarining barbod bo'lishi oqibatida iqtisodiyotning holati keskin yomonlashdi, ya'ni iqtisodiyotning sanoat va boshqa tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish keskin kamayib ketdi, birinchi darajali zaruratga ega bo'lgan mahsulot yetishmasligi sezilaboshladi va axolining turmush darajasi pasayaboshladi. Tabiiyki, kuchli iqtisodiy potencialga ega bo'lgan, yer qa'rida ko'plab miqdorda Mendeleyev jadvalining deyarli barcha elementlari bo'lgan, juda qulay tabiiy-iqlimiy sharoitga, rivojlangan kommunikatsiya vositalariga va iste'dodli kadrlarga ega bo'lgan O'zbekiston sharoitida bunday ahvolga rozi bo'lish mumkin emas edi. Mamlakatimizda 2011 yilni "kichik biznes xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi davlatimizning xo'jalik yurutishning eng samarali shakli

bo'lgan kichik biznesni jadal sur'atlar bilan rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida qarab, unga turli xil imtiyozlar berib kelayotganligi natijasidir. Berilayotgan imtiyozlar ichida alohida o'rinni soliq imtiyozlari tutadi. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Soliq yukini, birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun sezilarli darajada pasaytirish ko'zda tutilmoqda. Ular uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizgacha pasaytirildi,- deb aytgan fikirlari ham tasdiqlab turibdi. Ma'lumki har bir fanning o'z predmeti, ya'ni o'zining o'rganish obyekti bo'ladi. Masalan, "Soliqlar va soliqqa tortish" fanining predmeti bo'lib soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning iqtisodiy mohiyatini, ularning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi rolini, O'zbekiston Respublikasining mustaqil soliq siyosati va soliq tizimini, soliq turlari bo'yicha imtiyozlarni hamda soliqlarni hisoblash va byudjetga to'lash mexanizmini o'rganish xizmat qiladi. "Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fanining predmeti huddi "Soliqlar va soliqqa tortish" fanining predmeti kabi bo'lib, faqat kichik biznes va hususiy tadbirkorlik misolidadir. Soliq mexanizmi deganda soliq tizimini soliq amaliyotiga tadbiiq etish tushuniladi. Soliq mexanizmi o'z ichiga pul muomalalari yoki soliq amaliyotini o'rganishni oladi va soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan soliqlarni tashkil etuvchi barcha soliq elementlari yig'indisini o'rganishga xizmat qiladi. Bu yerda pul muomalalari soliq to'lovchilar, ya'ni kichik biznes va hususiy tadbirkorlik subyektlari hamda davlat (soliq yig'uvchilar) o'rtasida amalga oshiriladi.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor sigmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko'ratish sohasida va uncha katta bo'lmagan mahalliy resurs bazalarini o'zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekanligi kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog'langan. Kichik biznes subyektlarini

moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning manbalaridan biri bu - xalqaro moliya tashkilotlari va chet el banklari tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar hisobidan ochilayotgan kredit liniyalari hisoblanadi. Respublikamiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar yirik sarmoyalarni talab qiladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda, kichik biznes korxonalarida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishda xorijiy kredit liniyalari katta ahamiyatga ega. Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kreditlar, kichik biznes subyektlariga eksportga mo‘ljallangan va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini va boshqa xom ashyo resurslarini qayta ishlashni hamda boshqa kundalik ehtiyojdagi xalq ite‘moli tovarlarini ishlab chiqarishni nazarda tutadigan investitsion loyihalarga beriladi. Chunki eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun kichik biznes korxonalarini ishlab chiqarishga eng yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev YO.A., Qoraliev T.M., va boshqalar “Bank ishi”. O‘quv qo‘llanma - B.M.: T.: “Iqtisod-Moliya”, 2009. - 576 b.
2. Bobakulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligi. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007.–184 b.
3. Boltaboev M.R., Qosimova M.S. va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. –T.: TDIU, 2010y. 240 b.
4. Vaxobov A.V, Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”, 2010. - 174 b.
5. Jumaev N.X. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini taritibga solish metodogiyasini takomillashtirish.T. “Fan va texnologiya”,2007y.286b

**YOSHLAR MA'NAVIYATI VA TA'LIM-TARBIYASIDA TASAVVUF
TARIQATI YO'NALISHLARI VA NAQSHBANDIYA
TARIQATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

Xabib Sattorov,

Navoiy viloyat IIB JXX JTSB PPX

Batalion komandiri podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqolada Tasavvuf tushunchasi, uning mohiyati, tariqat yo'nalishlari o'rganilgan. Shuningdek, Naqshbandiya tariqati va uning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan. Bundan tashqari, maqolada "komillik" tushunchasining tasavvuf tariqatlaridagi ahamiyati qiyosiy tahlil etilgan. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan fikr va mulahazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: : So'fiylik, Zuhd, Zoxidlik, Zikr, Vird, Qutb, Avtod, Murid, Pir, Aqtob, Chilton, Shayx.

Komillik – bugungi kun yoshlari uchun qadrli va kerakli bo'lgan tushuncha. Har bir inson umri davomida erishgan tajribalari, bilimlari, ko'nikmalari asnosida hayot kechiradi. O'zga insonlarning bildirgan ijobiy fikrlari yoqimli, albatta, lekin tanqid hamisha ham hammaga yoqavermaydi. Inson hayoti davomida goho bilib, goho bilmay, juda ko'p xato va gunoh ishlarni sodir etadi. Bu esa ayrim hollarda jiddiy muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlardan saqlanish uchun komillikka erishish lozim. Xalq hamisha komillikka intilib, yaxshi niyatlar bilan yashaydi. El-yurtga naf keltirishni oilasini mustahkam, o'z turmushini obod qilishdan boshlaydi. Bu ezgu yo'lda milliy qarashlar va an'analarga suyanadi, bobomeros qudratdan kuch oladi.

Tarixiy yondashuv, tizimlilik, vorisiylik va qiyosiy tipologik tahlil tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Komillik, komil inson g'oyalarining

dastlabki kurtaklari tasavvuf tariqatlariga borib taqaladi. Unga ko'ra inson shariat, ma'rifat, tariqat va haqiqat orqali komillikka erishadi. Tasavvuf tariqatlari insonlarni ruhan poklanishga, halolikka, haqiqat yo'lidan yurishga, undovchi insoniy, axloqiy tamoyillarni shakllantiruvchi yo'ldir. Tarixdan ma'lumki, ushbu yo'l asosida yashagan, insonlarni to'g'ri yashashga chorlagan, insonlar hayotini, faoliyatini, yengillashtirgan, ularga naf keltirgan ne-ne buyuk siymolar mavjud. Ularning hayot faoliyati ibrat maktabi vazifasini o'taydi.

Bu kabi ajdodlarga misol qilib buyuk sarkarda, Temuriylar davlati asoschisi – Amir Temur xazratlarini, o'z davrida valiy darajasida ulug'langan xazrat Xoja Ubaydulloh Axrori, g'azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy hazratlarini keltirish mumkin. Tasavvuf tariqatlari tarixiga nazar solinsa, undagi g'oyalar, ta'limotlar necha asrlar davomida axloq singari zamon o'zgargani sayin u ham sayqallanib, takomillashib 139ilsil. Quyida ushbu tarixiy jarayonga qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Zamoni saodatda va undan keying dastlabki vaqtlarda aqoid, fiqh kabi islomiy ilmlar qatori tasavvuf ham alohida ajralib chiqmagan edi. U davrdagi musulmonlar Rasululoh sallohu alayhi vasallamning hayotlik chog'larida barcha narsada u zotning o'zlariga ergashar edilar. Keyinchalik esa sahobalar o'zlari Qur'on va sunnatdan kerakli xulosalarni olib, amal qilib yurdilar. O'sha paytda ruhiy kamolotga, zikr va zohidlikka moyil zotlar turli oyat va va hadislardan o'zlari uchun dalil topib, mazkur ishlarni o'z hayotlariga tatbiq qildilar.

Tasavvuf, so'fiylik – islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va tahminlar bildirishgan. Ular Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. U "Muqaddima" asarida tasavvuf "suvf" – "jun", "po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero qadimdan tarki dunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular 139ilsila kiyinib yuruvchi ahli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar, deydi[2]. Tasavvuf va "so'fiy" so'zlari IX asrning boshlarida yashagan Abu Hoshim So'fiydan boshlab

joriy etilgan. Undan oldingi davrlarda bu atama o'rnida "zuhd" ("zohidlik", "tarkidunyochilik"), "taqvodorlik", "parhezkorlik" kabi so'zlar ishlatilgan. Ibn Xaldunning fikriga ko'ra, sahobalar, tobeinlar va ulardan 140ilsil asr kishilarida hidoyat, ibodat, taqvo va zohidlik kabi his-tuyg'ular mujassam bo'lgan. Lekin hijratning II asri va undan 140ilsil davrga kelib, odamlarning ko'pchiligida mazkur xususiyatlar o'rnida dunyoparastlik, din ishlariga beparvolik, kibr va riyokorlik kabi salbiy xususiyatlar paydo bo'la boshlagandan keyin obidlik va zohidlikni ixtiyor qilgan bir guruh kishilar tasavvuf va so'fiylik nomi bilan ajralib chiqqanlar. Tasavvuf turlicha talqin qilingan. Masalan: Ma'ruf al Karxiy (815 y.v.e.) fikricha, "tasavvuf – haqiqat sari intilish, odamlardan ta'magirlik qilmaslik va faqirlikni ixtiyor etishdir". Zunnuni Misriy (859 y.v.e.), "So'fiy boylik istab o'zini charchatmas va yo'qotgan boyligiga achinib, bezovta bo'lmas", desa, Junayd al Bag'dodiy (909 y.v.e.) "tasavvuf – qalbni sof tutmoq, tug'ma zaiflik va noxush axloqlardan forig' bo'lib, hayvoniy va nafsoniy tuyg'ular ustidan g'alaba qilmoq", deb ta'rif bergan. Yana u "tasavvuf bir uy bo'lsa, shariat unga kiradigan eshikdir", degan. So'fi Olloyor bu ta'rifni quvvatlab: Shariatsiz kishi uchsa havog'a, Ko'ngil berma aningdek xudnamog'a, deb yozadi. Misirlik olim Ibrohim Basyuniy "Islomda Tasavvufning paydo bo'lishi" kitobida hijriy III va IV asrlarda yashab o'tgan olimlarning tasavvuf haqidagi 40 ta ta'rifini keltiradi[3].

Tasavvufda tasavvufning o'ziga xos istilohi mavjud. Masalan, tasavvuf ilmidan saboq beruvchi shaxs – shayx, murshid, pir, eshon, xoja, mavlo, mavlono, maxdum kabi unvonlar bilan tanilgan.

Tasavvufdan saboq oluvchi shaxs – murid, solik, ahli dil, ahli hol, mutasavvif kabi nomlar bilan atalgan. Tasavvuf bo'yicha oliy maqomlarga erishgan sohibkaromat pirlar – valiy, avliyo, qutb, aqtob, avtod, chilton, abdol, abror, ahror, nujabo, nuqabo, siddiq, g'avs kabi so'zlar bilan ifodalangan. Tasavvuf ahli ba'zan oshiq, faqir, haqir, darvesh, qalandar, zohid, orif, ahli muhabbat, ahli suluk, rijolul g'ayb, savdoyi, gado kabi atamalar bilan ham ifoda etilgan. Tasavvuf istilohi asosida ijod etgan shoirlar majoz uslubini tanlashgan. Shuning uchun haqiqat, majoz,

tashbeh, istiora kabi mantiqiy qoidalardan boxabar bo'lmagan kitobxon Navoiy, Fuzuliy, Atoyi, Umar Xayyom kabi mumtoz adabiyot namoyandalarining she'rlarini to'la anglashi qiyin silsila. Tasavvuf tarixida ko'p olimlar tasavvufga doir so'zlar izohiga bag'ishlangan lug'at va qomuslarni yozib qoldirishgan. Ulardan ayrimlari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik silsilasa qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Tasavvuf tariqatlarining yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qo'shib kelayotgan benazir hissasi butun dunyo xalqi tomonidan e'tirof etilsada, ba'zan islom olamida tasavvufga salbiy nazar bilan qarash, uning tariqatlari, mashoyixlar va karomatlarini inkor etish ko'zga tashlanadi. Burhoniddin al Biqoiy (1406-1480)ning "Tasavvuf inqirozi", Abdurahmon Dimashqiyaning "Naqshbandiya tahlili" kitobi va boshqa kitoblarda tasavvufning barcha tariqatlari va ularga doir asarlar hamda mashoyixlar qattiq tanqid qilingan. Mustaqillik yillaridan beri O'zbekistonda tasavvuf tariqatlarini o'rganish, unga doir asarlarni tarjima qilish, atoqli mashoyixlarning maqbaralarini qayta qurish va ta'mirlashga ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, tasavvuf tariqatlariga mansub pir-u komillar: Hakim Termiziy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G'ijduvoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xoja Axror Valiy, Shayx Zayniddin, 1411sila141a, Shayx Xovandi Tohur kabi valiylarning hayot va ijodlarini chuqur o'rganish, qoldirgan asarlaridan xalqni bahramand etish borasida muayyan ishlar qilinmoqda. Tariqatlar, tasavvuf va mutasavviflar tarixini o'rgangan olimlardan biri Abu Nuaym o'zining "Xulyatul avliyo" kitobida tasavvuf bilan mashhur bo'lgan tobeinlardan ikki yuz kishini tarjimayi holini keltirgan. Taba'a tobe'inlar avlodida Fuzayl ibn Iyoz va Ibrohim ibn Adham boshliq ko'plab so'fiylar yetishib chiqdilar. Asta-sekin ruhiy tarbiya ustozlari yetishib chiqqa boshladi. Ularning atrofida shogirdlari va o'z jamoalari ham paydo bo'la boshladi. Bora-bora ular boshqalardan ajralib turadigan o'z belgilariga ham ega bo'ldilar. Keyinchalik bir ustozning ruhiy tarbiyasini olib, o'sha tarbiyani hayotiga tatbiq qilib yurgan jamoa a'zolarining tutgan yo'lini "Tariqat" deb nomlash odat

tusiga kirdi. Zotan, “Tariqat” arabcha “toriyq” – “yo‘l” so‘zidan olingan bo‘lib, ham moddiy, ham ma’naviy yo‘lni ifoda etadi.

Har bir tariqatning ustozlari o‘z shogirdlari tomonidan “shayx” deb e’tirof qilinadi. Har bir shayx o‘z tariqatining Qur’on va sunnatga muvofiq ekanini, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning o‘zlaridan olinganini isbotlashi kerak edi. Buning uchun har bir shayx o‘z ustozining va ustozining ustozini ruxsatlarini isbotlab, silsilasini Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bog‘lashga harakat qilardi. Bu ma’noda ahli tasavvufning silsilasi huddi muhaddislarning sanadiga va faqihlarning mazhabiga o‘xshab ketardi. Albatta, har bir tariqatning asli Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga borib taqaladi. Shu sababli uning tomirlari uzun hisoblanadi.

Manbalar asosida Bahouddinning tavalludi hijriy 718 yili muharram oyida va rihlati hijriy 791 yili robi’ul avval. oyining 3 sanasi, dushanba kechasi ekanligi ko‘rsatilgan. Bahouddinga tarbiya bergan ustozlar shartli ravishda ikkiga ajratilgan:[5]

1. Bevosita muloqotda bo‘lib tarbiya bergan ustozlar.
2. Bevosita uchrashmasdan, ruhlari orqali tarbiya bergan uvaysiy ustozlar.

Birinchi guruhga Xoja Muhammad Boboi Samosiy, Xalil Og‘a, Amir Kulol, Orif Digtaroniy, Qusam Shayx va hadisshunoslikni o‘rgatgan ustozlari kiritiladi.

«Rashohot»da Bahouddin Amir Kuloldan so‘ng Orif Digtaroniy va Qusam Shayxdan va «keyinchalik esa Xalil Otadan tarbiya olgan», deyilgani voqealar mantiqiga mos kelmaydi. Chunki «Maqomot»da Naqshbandning o‘zi keltirgan naqli bu voqeaning boshqa tarzda bo‘lganligini ko‘rsatadi:

Bahouddin Samosiydan keyin Samarqanddagi shayxlardan ta’lim oladi. Keyin tushida Hakim ota Sulaymon Boqirg‘oniyning ishorasi bilan turk shayxlaridan Xalil Otadan 12 yil saboq olgan. Keyin Amir Kulol, 7 yil Orif Digtaroniy, 5 oy Qusam

Shayxdan tarbiya olgan. Ammo haqiqat yuzasidan shuni ta’kidlash lozimki, Bahouddin Uvaysiy bo‘lgan va G‘ijduvoniyaning tarbiyat topgan. Naqshbandiyaning Uvaysiylikni o‘zidan oldin o‘tgan G‘ijduvoni (vafoti 1180 yoki 1220) ruhi va

madadidan tarbiyat topganligi bilan izohlanadi. Manbalar tahlili asosida xojaning birinchi ruhiy holatining o'zgarishiga sabab Xoja Ali Romitanii ruhi bo'lganini, uning Naqshband o'zini «Biz Hazrat Azizonning muridimiz» deb ta'kidlagan. Uning tushida Boqirg'oniy (vaf. 1186) ruhi ishorat qilgani va u Xalil Ota tarbiyasini olganini, shundan keyin Xojai Jahon ruhiyati tarbiyasida bo'lganini yozgan.

Naqshband buyuk mutasavvif Mansur Halloj (858) ruhidan ham ta'lim olgan.

Naql qilinishicha, u aytgan: «Talab ayyomlarida Mansur Halloj sifati ikki marta menda tug'yon urdi. Bir dor bor edi. Ikki marta o'zimni dor ostiga yetkazdim va dedi: «Joying mana shu dordir». Tangri inoyati bilan bu maqomdan o'tib keta oldim». Naqshband buyuk so'fiylar Boyazid Bastomiy (vaf. 875), Junayd Bag'dodiy (vaf. 910), Shibliy (861) ruhiy olamidan ham bahra olgan, lekin ular maqomida qolmagan.

Hazrat Bahouddin rahmatullohi alayhi butun umr bo'yi o'z muridlarini sunnati Muhammadiyya yo'lida tarbiyalab o'tdi. Uning huzurida o'n minglab muridlar kamol topdi. Shoh Naqshband rahmatullohi alayhining tariqati hozirgi kunda ham dunyoning ko'p yurtlarida keng tarqalgan[7].

Naqshbandiya tariqatida hozirgi zamon yoshlar axloqni tarbiya qilish, haq yo'lga chinakam halollikka, pokiza rostgo'ylik, mehr-shavqat odamiylik va vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan so'fiylik ta'limotini singdirishning o'ziga xos imkoniyatlaridan foydalanilgan. Inson yashab turgan muhitda nozik ruhiy imkoniyatidan foydalanish orqali uning o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini nazorat qilish, ruhiy va jismoniy boshqarish mexanizmlarini ishga solish tufayli unda ezgu sifatlarni singdirish tizimi ishlab chiqilgan. Insondagi salbiy xislatlardan holi bo'lish, ezgu halol, adolatli xulq-atvorni tarbiyalashda rashxalar va ularni xufiya zikr orqali amalga oshirish insonni haq yo'lga intilishi orqali o'zini poklash tizimi hisoblanadi.

Xulosa o'rnida takidlash joizki yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, tasavvuf islom shiati talablarini ham ixlos bilan bajargan holda zuhd, taqvo, kamtarlik kabi oliyjanob fazilatlarni o'zida mujassam etib, nafsni poklash yo'li bilan komil inson darajasiga erishishga harakat qilishdan iborat. tasavvuf tariqatlari

axloqiy Naqshbandiya ta'limoti g'oyalari yoshlarni kamolotga yetaklaydi va tanazzuldan asraydi. Olib borilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, Bahouddin Naqshbandning ta'limiy-axloqiy merosidan maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanish, alloma g'oyalarini o'rganish jarayonida yoshlarning, yosh psixologik xususiyatlarini hamda qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish, alloma qarashlari mohiyatidan to'laqonli xabardor bo'lishlari o'rganilayotgan muammoning ijobiy yechimga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Bahouddin Naqshband ta'limiy-axloqiy merosi g'oyaviy diniy, falsafiy, madaniy yoshlar ta'lim-tarbiya ildizidir va milliy istiqloq mafkurasining bosh g'oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent. Hilol, 2019. – B 4.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent. Hilol, 2019. – B 5.
3. A. Sh. Juzjoniy. Tasavvuf va inson. Toshkent. 2001. – B. 9.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent. Hilol, 2019. – B 7.
5. Buxoriy Sadridin Salim. Bahouddin Naqshband yoki yetti pir. Buxoro. 2006. – B. 14.
6. Voxidov R., Maxmudov M, Azimov Yu. Ulug' Xojaning ibrat va hikmatlari. Pedagogik mahorat, 2005. 1-son. –B.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent. Hilol, 2019. – B 8.

SANOAT-4.0 DASTURI ORQALI AGROBIZNES KORXONALARIDA SIFAT MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LNALISHI

Tillayeva Muhayyo Abdumutalibjon qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Agrobiznes va marketing kafedrası assistenti

Annotatsiya: Maqolada Agrobiznes korxonalarida EQMS (Enterprise Quality Management Software) - korxonada sifatni boshqarish dasturini qo'llash tartibi tasniflandi hamda dasturni qo'llash natijasida kutiladigan ijobiy tendentsiyalar asoslandi. Shuningdek, sifat menejmentini agrobiznes korxonalarida ahamiyati va muammolari aniqlanib, xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sifat menejmenti, sanoat-4.0, EQMS (Enterprise Quality Management Software), sanoatning yangi avlodlari, paxta-to'qimachilik klasterlari, sanoat inqilobi.

Annotation: In the article, the procedure for using EQMS (Enterprise Quality Management Software) - enterprise quality management software in agribusiness enterprises was classified and the positive trends expected as a result of the application of the program were justified. Also, the importance and problems of quality management in agribusiness enterprises are determined and conclusions are drawn.

Key words: quality management, industry-4.0, EQMS (Enterprise Quality Management Software), new generations of industry, cotton-textile clusters, industrial revolution.

Ilm-fan rivoji dunyo mamlakatlari uchun xalqaro darajadagi raqobatbardoshlikka erishishning asosiy richagiga aylandi. Natijada, ilm-fan rivoji sanoatni zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan qurollanishiga, sun'iy intellektdan

ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda samarali foydalanishga imkon bermoqda. Shunday ekan, amalda ilm-fan rivojiga e'tibor qaratayotgan hamda innovatsion faoliyat taraqqiy etayotgan mamlakat korxonalarini yuqori samaradorlikka erishib, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirib bormoqdalar.

Rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishni maqsad kilib olgan O'zbekistonda ilm-fan rivoji yo'lida jadal islohotlar olib borilmoqda. "Ilmiy-Tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-Tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat tug'risida"gi kabi Qarorlar Hukumatning ham bu sohaga e'tibor berib kelayotganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, mamlakatdagi ba'zi sanoat korxonalarida foydalanilayotgan texnika-texnologiyalar ma'naviy eskirgan, ko'plab energiya sarf etadigan dastgohlardan iborat. Energiya sarflarini ko'pligi o'z navbatida mahsulot tannarxini ortishiga, sifatini pasayishiga va jahon bozoridagi kuchli raqobatga bardosh berish bilan bog'lik muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bunday vaziyatda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar qo'llayotgan sanoatning yangi avlodlari ustida ilmiy tadqiqotlar olib borish, tajribalarni tadqiq etish va ulardan samarali foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Ilm-fan rivoji sanoatda yangi inqilob sanoat-4.0ni vujudga keltirdi. Bugungi kunda, Germaniya, AQSH, Gollandiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Belgiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar sanoatning to'rtinchi inqilobidan samarali foydalanib kelmoqdalar.

To'rtinchi sanoat inqilobini mamlakat, hudud, tarmoq, korxonalar raqobatbardoshligiga ta'siri xususida bir qancha tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

A. Magrupov milliy iqtisodiyot uchun zamonaviy mutaxassislar tayyorlashda sanoat-4.0 dasturini e'tiborga olish kerakligi, "Raqamli O'zbekistan - 2030" dasturi sun'iy intellekt, internet ashyolari, katta ma'lumotlar, irsiy va biotexnologiyalar,

tiklanadigan elektr manbalari, kompozit materiallar bilan bog'lik ekanligi xususida to'xtalib o'tgan²⁶.

Sanoat-4.0ni tushunishda avvalambor, sanoatning boshqa rivojlanish bosqichlarini bir qatar ko'rib utish zarur.

Sanoatning birinchi inqilobi 1760-1840 yillarni qamrab olib, suv va but energiyasining o'zlashtirilishi va shu orqali qo'l mexnatidan mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarishga o'tilishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi sanoat inqilobi XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida kuzatilib, elektr energiyasi va konveyr usuli asosida ilgari misli ko'rilmagan hodisa - sanoatda ommaviy mahsulotlar ishlab chiqarish boshlanishi bilan ahamiyatlidir.

Uchinchi sanoat inqilobi XX asrning 60-yillaridan boshlangan bo'lib, elektron va raqamli texnologiyalar natijasida sanoat avtomatlashuv darajasiga ko'tarildi. Ushbu o'zgarishlar nafaqat sanoat va iqtisodiyotga, balki insoniyat hayotining barcha jabxalariga keskin ta'sir qilgani yaxshi ma'lum.

Rivojlangan mamlakatlarda jadal olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish natijasida sanoatning yangi avlodi to'rtinchi sanoat inqilobi vujudga keldi.

To'rtinchi sanoat inqilobining o'ziga xos xususiyatlari raqamli, fizik va biologik texnologiyalar yutuqlarini mujassamlashtirgan yangi texnologiyalarning vujudga kelishi, raqamli texnologiyalar va organik, biologik dunyo o'rtasidagi chegaralarning yo'qolib borishida namoyon bo'ladi.

Sanoat-4.0 insoniyatni yangi davrga olib keldi. Ushbu davr butun dunyo bo'ylab milliardlab odamlar, biznes va hukumatlar uchun, yangi imkoniyatlarni yaratdi. Inson kapitali, innovatsiya, texnologiya, moslashuvchanlik va chaqqonlik Sanoat-4.0ni iqtisodiy muvaffaqiyatga erishishini eng muhim omillaridir²⁷.

²⁶<http://www.biznes-dailyuz.ru/biriaexpert/68039-innovatsiya-iqtisodiv-taraqqiyotning-asosiy-harakatlantiruvchi-kuchi>

²⁷Hasan Lebi BAL, Qisil ERKAN. Industry 4.0 and Competitiveness. Published by Elsevier B.V. Peer-review under responsibility of the scientific committee of the 3rd World Conference on Technology, Innovation and Entrepreneurship. Procedia Computer Science 158(2019)625-631629118

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini nazorat qilish bilan bog'lik masalalarda turli sifatni boshqarish tizimlari joriy etilishiga qaramasdan hamon sifat bilan bog'lik muammolar uchramoqda. Lekin, sanoat-4.0 dasturi tarkibidagi samarali tizimlar bilan ishlab chiqarishni tashkil etish sifat bo'yicha muammolarni tubdan bartaraf etilishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda to'rtinchi sanoat inqilobi bo'lgan sanoat-4.0ni qo'llanishi sifatni yangi darajaga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Ma'lumki, sanoatning yangi avlodi texnologik o'zgarishlar asosida xodimlar, mashinalar va axborotlarning o'zaro aloqasining yangicha ko'rinishda ishlab chiqildi. Ushbu sanoat turi bilan birga sifat menejmentining yangi usuli EQMS (Enterprise Quality Management Software) - korxonalar sifatini boshqarish dasturi amalda qo'llanila boshlandi.

EQMSdasturi ishlab chiqarish jarayonlarini raqam ko'rinishida mahsulotlarning sifatini va muvofiqligini nazorat qiladi hamda boshqaradi. Shuningdek, dastur IT ma'lumotlar bazasi bilan integratsiyalashgan, hamkorlikni osonlashtiradigan sifat menejmenti platformasi sifatida ko'rish mumkin. Uni mukammal jihatdan ishga solish uchun sanoat-4.0ning barcha elementlari muvaffaqiyatli ishlab turishi lozim.

Shuningdek, EQMSdasturi sifatni quyidagi jarayonlar orqali yaxshilashga yordam beradi:

- jarayonlar, o'lchovlar va taxminlarni standartlashtirish;
- yetkazib beruvchilardan tortib oxirgi iste'molchilarga qadar sifatni nazorat qilish tizimini birlashtirish;
- mijozlar fikrini hisobga olish;
- ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash;
- o'zaro ma'lumot almashish orqali hamkorlikka yordam beradi.

EQMSdasturi ishlab chiqarish jarayoni, foyda, zararlar kabi ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotlarni to'playdi, tartibga soladi va saqlaydi. Ushbu ma'lumotlar keyinchalik sifatni boshqarish bo'yicha qarorlarni qabul qilish jarayonlarini boshqarish uchun tahlil qilinadi.

EQMSdasturining asosiy xususiyatlaridan biri ilovalar dasturlar o'rtasida integratsiyalashgan holda platformada boshqa dasturlar bilan 119 birlashtirilishi mumkin. Shuningdek, dasturda istalgan joyda, istalgan vaqtda kirishga imkon beruvchi veb-ilovalar ham mavjud EQMSdasturini ishlash mexanizmi xususida to'xtalib o'tilsa, dasturdagi auditorlik tekshiruvi nafaqat sifatni, balki ishlab chiqarish boshlanishidan to savdo nuqtasigacha bo'lgan ish jarayonini qamrab oladi.

Shikoyatlarni ko'rib chiqishda korxonalar ishchi-xodimlari, iste'molchilar va mijozlardan tushgan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Hujjatlarni boshqarish elektron tartibda amalga oshirilishi nazorat etiladi, bajarilish muddatlari eslatib o'tiladi. Korxonaga xavf soluvchi risklar aniqlanadi va inqirozni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Atrof-muxit, sog'lik va xavfsizlik bo'yicha belgilangan talablarga muvofiqlik nazoratga olinadi. Xodimlar sifatini boshqarish bo'yicha ham zarur chora-tadbirlar yig'ilgan axborotlar bazasi asosida amalga oshiriladi.

Korxonaning bozor ulushi yoki biznesi usib borishi bilan mahsulot sifatini boshqarish jarayonlari ham murakkablashadi. EQMSdasturi bunday ushning xar bir bosqichida korxonalar xavf soluvchi risklar aniqlanadi va inqirozni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Atrof-muxit, sog'lik va xavfsizlik bo'yicha belgilangan talablarga muvofiqlik nazoratga olinadi. Xodimlar sifatini boshqarish bo'yicha ham zarur chora-tadbirlar yig'ilgan axborotlar bazasi asosida amalga oshiriladi.

Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish klasterida mavjud sifat menejmenti tizimini EQMSdasturi yordamida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun har bir bo'limni zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash, lokal tarmoqlar yordamida bo'limlarni bir-biriga interatsiyasini amalga oshirish talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. Qambarov J.X. Sanoat-4.0 dasturi: O‘zbekistan uchun keng imkoniyat. Xalq so‘zi gazetasi 2020 yil 3 iyunь, №116 (7618).
2. Qambarov J.X., Shokirova Y.S.. Sifat menejmentini takomillashtirish: Monografiya. T.: “Navruz”, 2018.
3. Тарасов И.В. Индустрия 4.0: понятие, концепции, тенденции развития. Стратегии бизнеса электронный научно-экономический журнал. №6 (50) 2018. С.



MUSIQA MADANIYATI FANI O'QITUVCHILARINI YANGI METODIKALARGA O'RGATISHDA LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Rasulova Maftuna Nasimboy qizi

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa madaniyati fani o'qituvchilarini yangi metodikalarga o'rgatishda loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyalari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Loyiha, PBL, ta'lim texnologiyalari, kreativlik, bashoratlash, rejalashtirish, tanqidiy fikrlash, hamkorlik.

Abstract. This article describes the importance of using project-based educational technologies and project-based educational technologies in teaching music culture teachers to new methods.

Key words. Project, PBL, educational technologies, creativity, prediction, planning, critical thinking, collaboration.

Аннотация. В данной статье описывается важность использования проектных образовательных технологий и проектных образовательных технологий в обучении учителей музыкальной культуры новым методам.

Ключевые слова. Проект, ПОО, образовательные технологии, креативность, прогнозирование, планирование, критическое мышление, сотрудничество.

Hozirgi davrda har bir o'qituvchi egallashi lozim bo'lgan eng muhim ko'nikmalardan biri darslarni ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilish va o'tkaza olish ko'nikmasidir. O'z tarkibiga ko'ra bu ko'nikma anchama murakkabdir. Loyiha

asosida o'qitishning asosiy g'oyasi shundaki, real muammolar o'qituvchilarning qiziqishini o'ziga jalb qiladi va o'qituvchilar yangi bilimlarni egallashlari va muammolarni hal qilishda qo'llashlari bilan jiddiy fikr yuritadilar. O'qituvchi yordamchi rolini o'ynaydi, o'qituvchilar bilan foydali savollar tuzish, mazmunli vazifalarni tuzish, bilimlarni rivojlantirish va ijtimoiy ko'nikmalarga murabbiylik qilish hamda o'qituvchilar tajribasidan o'rgangan narsalarini sinchkovlik bilan baholash. Odatiy loyihalar hal qilish uchun muammo (maktab hovuzidagi ifloslanishni kamaytirishning eng yaxshi usuli qanday?) Yoki tekshirish uchun hodisani (yomg'ir nima sabab bo'ladi?) taqdim etadi. PBL o'quv dasturidagi asosiy mavzular uchun ma'qullash usuli sifatida ma'ruza, darslik va ish daftarida olib boriladigan faoliyat va so'rov kabi boshqa an'anaviy o'qitish modellari o'rnini egallaydi. Bu o'qituvchilarga turish va haqiqiy ma'lumotlarni yetkazib berishdan ko'ra, chuqurroq tushunishni osonlashtirish va baholashga imkon beradigan o'quv qo'llanmasi. PBL o'qituvchilarning muammolarini hal qilish va ijodiy mahsulot ishlab chiqarishni qasddan rivojlantirib, asosiy tushunchalarni chuqurroq anglash va tanqidiy fikrlash kabi 21-asrning muhim o'quv ko'nikmalarini o'zlashtirishga imkon beradi. O'qituvchilar o'qituvchilarni loyihalash jarayonlaridan o'rganish uchun o'qituvchilar o'qituvchilarni o'rganishga rahbarlik qilishganda o'qituvchilar faol ravishda raqamli tadqiqotchilar va o'zlarining bilimlarini baholovchi bo'lishadi. Shu nuqtai nazardan, PBL - bu o'qituvchilarning butun birlik davomida bajarishi yoki bajarishi bo'yicha mustaqil ravishda o'rganish birliklari. PBL shunchaki dars yoki birlik oxirida qolib ketgan "faoliyat" (loyiha) emas. Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) bu uslubiy strategiyadir. O'qituvchilar savollar yoki muammolarni hal qilishga asoslangan bir qator vazifalarni amalga oshiradilar. Tinglovchilar jarayon orqali tergov yoki avtonom tarzda hamda ular o'rtasida yuqori darajadagi hamkorlik bilan ijod qilishadi, ular boshqa hamkasblariga taqdim etiladigan yakuniy mahsulotni ishlab chiqarishadi. Loyiha asosida o'qitishning afzalliklaridan biri bu fanlararo tabiatning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, bitta loyihada bir nechta yechim bo'lishi mumkin. Tinglovchilar muammolarni hal qilishda o'zlarining strategiyalari va

yondashuvlarini erkin tanlaydilar, bu ularning keng dunyoqarashiga ta'sir qiladi. Faol ta'limni amalga oshirish mumkin bo'lgan loyiha asosida o'rganish mantiqan har qanday o'quv intizomiga to'g'ri keladi. O'qituvchilar hamkasblari bilan o'zaro hamkorlikda ishlashlari kerak, ehtimol yanada chuqurroq loyihalarda ishlash ularda loyihalash ko'nikmalarini shakllantiradi. Loyihalarni hal qilish bilan shug'ullanadigan o'qituvchilar muammolarni hal qilish, aloqa, faol tinglash, rejalashtirish yoki o'zini o'zi baholash kabi muhim ahamiyatga ega bo'lgan qobiliyatlarni o'zlashtiradilar. Bu jamoaviylikning ma'nosini ta'kidlaydi. Bir-birini to'ldiruvchi usulda o'qituvchilar o'zlarining bilimlarini nazorat qilishadi. Boshqa muhim hissalar ijodkorlik va tasavvurni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, qiyinchilik tug'dirib, takomillashtirish ruhi har bir insonda o'zlarining mukammallik standartlari doirasida ishlaydi. Loyiha asosida o'rganishga yaqinlashganda, quyidagi kabi bir qator elementlar zarur loyiha mavzusi o'qituvchilar uchun dolzarbdir. Biz ularga madaniy, jismoniy, ekologik meros muhiti va boshqalar to'g'risida savol bera olamiz. Ularni ushbu loyiha uchun rag'batlantirish uchun ular kontekstni tushunishlari, ushbu turdagi loyihalarni ishlab chiqish muhimligini tushunishlari va bu haqida aytib berishlari kerak. Yana bir muhim element baholash mezonlari bo'ladi, ular bilan o'rganish va loyihaning o'zi yaxshiroq aniqlanishi mumkin. Tadbirlarda o'qituvchilar loyiha davomida murojaat qilishlarini o'rganish muhim, ularni o'qituvchi boshqarishi yoki yakka tartibda yoki jamoaviy ravishda boshqarishi kerak. Yakuniy mahsulot, bu fosh etilishi kerak bo'lgan natija. Shuningdek, o'qituvchilardan loyihani o'z-o'zini baholashlari so'ralishi mumkin.

O'qituvchi dars mazmuni va mavzusiga ko'ra darsda qo'llanadigan texnologiyani tanlaydi, bunda asosiy e'tibor, maqsad aniq natijaga erishishga qaratiladi. Albatta bu o'rinda o'quvchilarning bilish saviyasi, qiziqishi va intilishlari mavjud shart - sharoit hisobga olinadi. Masalan, magnitofonda musiqiy asarni eshitish, so'ngra munozara, doira stol atrofida jamoaviy tarzda uni tahlil qilish, erkin munozara asosida asar haqida (nazariy, badny-matn) kerakli ma'lumotlarni o'zlashtirish mumkin. Shuningdek, ko'rgazmali vositalar, tarqatma materiallar, turli

adabiyotlar, axborot manbalardan ijodiy foydalanish mumkin. O'qituvchi bilan bir qatorda o'qitish jarayoni oldindan loyihalashtirish za'rur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv materialining mazmuni, sinf imkoniyatini, hisobga oladi-o'quvchilarni dars faoliyatini markaziga asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylantirish kerak [141]. Darsni yaxshi natijaga olib kela oladigan darajada loyihalashtirish uchun o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir mashg'ulot xususiyatidan o'quvchilarning imkoniyat va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Zamonaviy musiqa madaniyati darslarini badiiy - pedagogik asar deb hisoblash mumkin. Chunki uni o'qituvchi o'z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi. Darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi, uning badiiy - pedagogik g'oyasi, maqsad va vazifalari, shakllari, metodik usullari va texnologiyalari ham o'quvchilarda musiqaga, o'quv materiallariga qiziqishni o'stirish, ularga musiqa san'ati va madaniyatining ma'naviy mazmunini singdirish, zamonaviy musiqali ijodiy faoliyatni anglashi - bularning hammasi o'qituvchining ijodiy yondashuvchanligining mahsuli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Sh, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent, Fan, 2001
2. Ishmuhammedov.R, Abduqodirov.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, - Fan, 2008 – yil
3. Tolipova Sh. Pedagogik texnologiyalar - do'stona muhit yaratish omili. - Toshkent, YUNIREF, RTM, XTB, 2005 - yil.
4. Davletshin M. G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. - Toshkent, - O'zbekiston, 1999 - yil.
5. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. TDPU, 2004 - yil.
6. Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari. Fanning o'quv - uslubiy majmuasi. - SamDU, 2011 - yil. R

ABDULLA AVLONIY BADIY MEROSI BARKAMOL AVLODNING TARBIYASIDAGI O'RNI

Muhiddinova Nafisa Safaraliyevna

TDPU, Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi magistri

Annotatsiya: Tezisdan Abdulla Avloniyning o'zbek pedagogikasiga qo'shgan hissasi, u ilk marta tarbiya oldiga ijtimoiy vazifalarni qo'ygani hamda uning merosi barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni yoritib berilgan.

Abdulla Avloniyning o'zbek pedagogikasiga qo'shgan hissasi shundan iboratki, u ilk marta tarbiya oldiga ijtimoiy vazifalarni qo'ya olgan. Bu shoir va pedagogning katta jasorati o'z asarlarida tarbiyaning hal etuvchi rolining e'tirof etilishida bo'ldi. Uning fikricha tarbiya ijtimoiy maqsadlarni ko'zlashi kerak. Avloniy "yangi kishi" tushunchasini shaxsiy emas, balki ijtimoiy manfaatlardan kelib chiquvchi jamoat arbobi sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha tarbiyaning muvaffaqiyati oila, ota-onalar, pedagoglarning shaxsiy namunaviy roli bilan belgilanadi. Eng muhim ijtimoiy xususiyat deb, u mustaqillik, tashabbuskorlik, amaliy tajribani e'tirof etgan. [1; 57-b]

Sharq adabiyotida axloq va odob favqulodda katta o'rin egallaydi. "Adabiyot" mavzusining o'zi ham odob so'ziga borib taqalishi bejiz emas. Sharqda bu mavzuga to'qilmagan she'r ahlini topish qiyin. Yozma adabiyotimizning birinchi yirik namunasi «Qutadg'u bilig» o'rta asrning axloq qomusi edi. Alisher Navoiyning bu masalaga qanchalar e'tibor berganligi barchaga ma'lum. Sharqda axloq ilmining buyuk allomalari yetishib chiqdilar. Sa'diy Sheroziy shunday buyuk martabaga musharraf bo'lganlardan edi. U o'zining "Guliston" va "Bo'ston" asarlari bilan badiiy ijodda yangi bir yo'l ochib berdi.

Avloniy o'z asarini yaratishda Shayx Sa'diy izidan bordi. Kitobning «Turkiy yoxud axloq» deb nomlanganligi bejiz emas. Avloniy buni kitobning 1917-yilgi

ikkinchi nashrida yozgan. U shunday yozadi: «Turkiston maktablarida o‘z shevamizda yozilmish mukammal “Axloq” kitobining yo‘qligi, afrodi millatning shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanlig‘i, o‘zum muallimlar jumlasidan o‘ldug‘imdan, manga ham ochiq ma‘lum o‘ldi. Shuning uchun ko‘p vaqtlar tajriba so‘ngidan adibi muhtaram Shayx Sa‘diy usulinda yozmakni, garchi og‘ir ish bo‘lsa ham, o‘zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni aroding ko‘tarmakni munosib ko‘rdim».

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasiga alohida e‘tibor beradi va tarbiyaning rolini aniq tushuntirib beradi. “Agar bola yoshligidan nafs buzilib tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi Allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq- yerdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidur”,- deydi. [2; 3-b] Uning fikricha bolalarda axloqiy normalarning tarkib topishida muhit, sharoit va bolalarning atrofidagi kishilar g‘oyat katta ahamiyatga ega. Haqiqiy insoniy axloqni o‘zida mujassamlashtirgan yaxshi kishilar yoshlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va ularni mehrshavqatli, sof dil va maqbul bo‘lib tarbiyalanishi uchun zamin hozirlaydi.

Har bir murabbiyning vazifasi “Bolaning yosh vaqtida yosh xulqlarni o‘rgatmakdur”. [3; 5-b] Yana u tarbiyaga katta e‘tibor berib “...xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadur” [7; 6-b] deb ta‘kidlaydi.

U “tarbiya” haqida gapirar ekan bolaning hayotiga oid turli muhim masalani hal etishga kirishadi: 1. “Tarbiyaning zamoni”, 2. “Badan tarbiyasi”, 3. “Fikr tarbiyasi”, 4. “Axloq tarbiyasi”, Bolani tarbiyalashda bu to‘rt masala g‘oyat muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlaydi.

“Tarbiyaning zamoni” masalasida Avloniy bolani o‘rab olgan sharoitga, muhitga, jamiyat kishilariga alohida e‘tibor beradi va bu sohada oila, maktab sharoitini ham yoddan chiqarmaydi. Avloniy axloq va tarbiyani o‘zgarmaydi, tarbiya axloqqa ta‘sir etolmaydi, insonlar asl yaratilishda qanday bo‘lsalar shunday o‘sarlar, inson tarbiyasi o‘zgarmaydi deb aytuvchilarga qarshi chiqadi va bu fikrni rad qiladi. Tarbiyaning bola axloqiga, xulq-atvoriga katta ta‘sir etadi deb ta‘kidlaydi.

Avloniy tarbiyani bola tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudini chiniqtirmoq, sog‘lom fikrlashini rivojlantirmoq, axloqini go‘zallashtirmoq lozim deb aytadi. U tarbiyani ikkiga bo‘lib, biri “Uy tarbiyasi- bu onani vazifasidir” deydi, ikkinchisi “Maktab va madrasa tarbiyasi - bu muallim, mudarris va jamiyat vazifasidir” - deydi.

Abdulla Avloniy bolalar sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm ma’rifatga ega bo‘lish uchun badan sog‘lom bo‘lishi kerak deydi: “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qimoq, o‘qitmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur” [2; 9-b] deydi.

Abdulla Avloniy komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlari bilan sharq mutafakkirlarining fikrini boyitar ekan, komil inson qiyofasida, yana shuningdek, vatanparvarlik, intizomlilik sifatleri ham namoyon bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. Alomma millat taqdirining jonkuyari sifatida milliy til taraqqiyoti jamiyat ma’naviy rivojini ta’minlovchi asosiy omil deb baholaydi. [4; 172-b]

Avloniy insonning eng go‘zal xislati bo‘lgan qanoat, sabr, xilm, intizom kabi fazilatlarga katta e’tibor beradi. Bolani aynan shu fazilatlar orqali tarbiyalashni tavsiya etadi.

Abdulla Avloniy asarida axloqiy kategoriyalar haqida fikr yuritar ekan, birinchi o‘rinda o‘quvchilarni ko‘zda tutadi, ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklab qo‘yadi. Demak, asar o‘quvchilardan ko‘ra ko‘proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so‘zlari “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining maqsadini to‘la ifodalaydi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘b zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur. Ta’lim ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur”. [2;12-b]

Barkamol insonni voyaga yetkazish, ularni yaxshilikka chorlash, yomonlikdan qaytarish tarbiya orqali amalga oshiriladi. Avloniyning pedagogika haqidagi ta'rifi ham hozirgi zamon ta'rifiga ancha mos keladi: "Tarbiya – "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani hisoblanadi".

Avloniy insondagi salbiy sifatlarning har birini analiz qilish bilan birga ularning odamlar uchun zararli ekanini ko'rsatadi va ulardan odamlarni qaytarish yo'llarini ko'rsatib beradi, salbiy sifatlardan biri jaholatdir. Jaholat- deydi Avloniy – o'qimagan, bilimsiz, hech narsaga tushunmaydigan nodonlikka aytilur. "Jaholat – insoniyatning eng zo'r dushmani, yomon xulqlarning boshlig'idur"- deb ta'kidlaydi. [2: 67-b].

Abdulla Avloniy milliy tarbiyaga, yoshlarni sog'lom fikrlashini, shaxs sifatida kamol topishini birinchi o'ringa qo'yadi. Shu nuqtai nazarda Abdulla Avloniy sog'lom fikrlash, vijdonlilik, to'g'riso'zlik, topqatlilik kabi fazilatlarni ulug'laydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. N.M.Egamberdiyeva. Ijtimoiy Pedagogika. . Darslik. T.-2019.
2. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т.: —Ўқитувчи, 1992.
3. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar: Psix.f.d. dis. – T.: ToshDU, 1994. – B.309.
4. M.X.Toxtaxo'jayeva, J.Hasanboyev, S.Nishonova. Pedagogika. Toshkent-2006

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAKTABLARIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH

Mukimova Dinora Ismatullayevna

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Defektologiya - Logopediya
yo'nalishi II - kurs magistranti

ABSTRACT: This thesis provides general information and conclusions about the extent to which members of the organization have benefited from the establishment of the Collective Security Treaty Organization to the present. Over the past year, the CSTO has faced so many problems that discussions about the organization have turned from narrow expert discussions into broad political debates in all member states. As a result, questions arose about what the CSTO should do and how many member states really need it.

Key words: CSTO, CIS, interim president, sovereignty, resolution, observer status, Peacekeeping Forces, sanction, collective defense right.

XX asrning so'nggi o'n yilligining boshida Sobiq Sovet davlati parchalandi va uning tarkibida bo'lgan respublikalar birin-ketin mustaqillikka erisha boshladi.

Shunda ular rivojlanishning dastlabki bosqichida bo'lganligi uchun birgalikda, hamjihatlikda harakat uchun yagona tashkilotga birlasha boshladilar. 1991-yil 8-dekabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkil etildi. Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi(MDH) doirasidan chiqdi va 1992-yil 15-mayda birinchi bo'lib MDH Kollektiv xavfsizlik shartnomasi (KXShT) sifatida Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston va O'zbekiston tomonidan Toshkent shahrida imzolangan. Shartnomani Ozarbayjon 1993-yil 24-sentyabrda, Gruziya 9-dekabrda va Belarus 31-dekabrda imzolagan va 1994-yil 20- aprelda kuchga kirdi.[1] KXShT muddati uzaytirilmasa, 5 yillik muddatga amal qilishi belgilandi. 2002-yil 7-oktyabrda Kishinyevda Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkilotining nizomi va KXShTning huquqiy maqomi to'g'risidagi Bitim barcha a'zo davlatlar rahbarlari tomonidan imzolandi. Ushbu hujjatlar 2003- yil 18-sentyabrda kuchga kirdi. Shartnomaga ko'ra, a'zo davlatlar o'z xavfsizligini kollektiv asosda ta'minlaydi. Shartnomaning 2-moddasida shunday deyiladi: "Bir yoki bir nechta a'zo davlatlarning xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetiga tahdid yoki xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid mavjud bo'lgan taqdirda, a'zo davlatlar darhol hamkorlikni muvofiqlashtirish maqsadida qo'shma maslahatlashuvlar mexanizmini ishga tushiradilar, o'z pozitsiyalarini egallab, yuzaga kelgan tahdidni bartaraf etish choralari ko'radi".

2004-yil 2-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkilotiga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida kuzatuvchi maqomi berish to'g'risidagi rezolyutsiyani qabul qildi. Oxirgi KXShT hujjatlari va rasmiylar bayonotlarida KXShT Yevropa yoki Kavkazdan ko'ra Markaziy Osiyoga ko'proq darajada urg'u beradi.[2] 1999-yil 2-aprelda tashkilotning olti a'zosi shartnomani yana besh yillik muddatga uzaytirish to'g'risidagi protokolni imzoladilar – Ozarbayjon, Gruziya va O'zbekiston shartnomani imzolashdan bosh tortdilar va uning o'rniga shartnomadan chiqdilar. Ayni vaqtda O'zbekiston 1997-yilda Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova tomonidan tashkil etilgan va asosan Rossiyaning mintaqadagi ta'siriga qarshi turish

niyatida ko‘rilgan GUAM guruhiga qo‘shildi.[3] 2005-yil davomida KXShT hamkorlari umumiy harbiy mashg‘ulotlar o‘tkazdilar. O‘zbekiston keyinchalik 2005-yilda GUAMdan chiqdi va 2006-yilda KXShTga to‘laqonli a‘zo sifatida qo‘shildi va keyinchalik uning a‘zoli O‘zbekiston parlamenti tomonidan 2008-yil 28-martda ratifikatsiya qilindi.[4] 2007-yil iyun oyida Qirg‘iziston KXShTga raislik qildi.

Aniq biror operatsiyada (masalan Qozog‘istondagi voqeada) qatnashish uchun Tinchlikparvar kuchlar kollektivi tuziladi. Tinchlikparvar kuchlarning tarkibi, soni va tuzilishi KXShT Kollektiv xavfsizlik kengashi qarori bilan, har bir operatsiya uchun mojaro hududidagi holatdan kelib chiqib belgilanadi.[5]

2007-yil oktyabr oyida KXShT Tojikiston poytaxti Dushanbeda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) bilan xavfsizlik, jinoyatchilik va giyohvand moddalar savdosi kabi masalalar bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risida shartnoma imzoladi.[6] 2007-yil 6-oktyabrda KXShT a‘zolari BMT mandati ostida yoki unga a‘zo davlatlarda mandatsiz joylashtirilishi mumkin bo‘lgan KXShT tinchlikparvar kuchlarini yaratish bo‘yicha tashkilotning kengayishi to‘g‘risida kelishib oldilar. Kengayish shuningdek, barcha a‘zolarga Rossiya qurollarini Rossiya bilan bir xil narxda sotib olish imkonini beradi. 2008-yil 29-avgustda Rossiya KXShTga Abxaziya va Janubiy Osetiya mustaqilligini tan olishga intilishini e‘lon qildi. Uch kun avval, 26-avgust kuni Rossiya Gruzianing Abxaziya va Janubiy Osetiyaning ajralib chiqqan hududlari sifatida mustaqilligini tan oldi. 2008-yil 5-sentyabrda Armaniston Rossianing Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan tashkilot yig‘ilishida KXShTga raislik qildi.

2010-yil aprelida Qirg‘izistondagi tartibsizliklar natijasida Qurmanbek Bakiyev Qirg‘iziston prezidenti lavozimidan chetlashtirilgach, unga Belarusdan boshpana berildi. Belarus prezidenti Aleksandr Lukashenko Bakiyevning ag‘darilishining oldini ololmagani uchun KXShT kelajagiga shubha bildirdi.[7]

Rossianing Qrimdagi Sevastopol portini chegirmali tabiiy gaz yetkazib berish evaziga ijaraga berish muddatini uzaytirish uchun Ukrainaga safari chog‘ida Rossianing o‘sha paytdagi prezidenti Dmitriy Medvedevdan Belarus ham shunga

o'xshash kelishuvni kutishi mumkinmi degan savolga shunday javob berdi: "Haqiqiy sheriklik bir narsa va niyatlar deklaratsiyasi. boshqasi; Jiddiy ishlash, yarim yo'lda uchrashish, bir-birlariga yordam berish bo'yicha kelishuvga erishish boshqa, ishdan ayrilganlarga doimiy propiska berish bo'yicha qaror qabul qilish boshqa". Belarus prezidenti Rossiyaning prezidenti Vladimir Putinning 2005-yilgi "Lola inqilobi" paytida Qirg'iziston prezidenti lavozimidan chetlatilganidan so'ng Asqar Akayevni Rossiyaga taklif qilganini tilga olib, o'zini bu tanqiddan himoya qildi. 2009-yilda Belarus Rossiya bilan Sut urushi tufayli KXShT sammitini boykot qildi. 2009-yilda KXShT sammitida qatnashishdan bosh tortdi.

2010-yil aprelida Qirg'izistondagi tartibsizliklar natijasida Qurmanbek Bakiyev Qirg'iziston prezidenti lavozimidan chetlashtirilgach, unga Belarusdan boshpana berildi. Belarus prezidenti Aleksandr Lukashenko Bakiyevning ag'darilishining oldini ololmagani uchun KXShT kelajagiga shubha bildirdi

Lukashenko avvalroq Abxaziya va Janubiy Osetiya mustaqilligini tan olishdan bosh tortganidan keyin Rossiyani Belarusni iqtisodiy sanksiyalar bilan jazolashda aybladi. Belarus prezidenti Rossiyaning prezidenti Vladimir Putinning 2005-yilgi "Lola inqilobi" paytida Qirg'iziston prezidenti lavozimidan chetlatilganidan so'ng Asqar Akayevni Rossiyaga taklif qilganini tilga olib, o'zini bu tanqiddan himoya qildi.

Keyingi oy Rossiya xavfsizlik kengashi kotibining o'rinbosari Medvedev Rossiyaning tabiiy gaz monopoliyasi "Gazprom" kompaniyasi bosh direktoriga to'lanmagan qarzlarni bo'yicha bahsda Belarusga gaz yetkazib berishni to'xtatishni buyurdi. Keyinchalik, Gazprom tomonidan boshqariladigan Rossiyaning NTV telekanali Lukashenkoni Bakiyevga qiyoslagan hujjatli filmni namoyish etdi. Keyin Rossiya prezidentining tashqi siyosat bo'yicha maslahatchisi Sergey Prikhodko KXShT yig'ilishi stenogrammasini nashr etish bilan tahdid qildi, unda Lukashenko uning ma'muriyati Abxaziya va Janubiy Osetiya mustaqilligini tan olishini aytdi.

2010-yil iyun oyida Qirg'iziston janubida etnik qirg'izlar va o'zbeklar o'rtasida etnik to'qnashuvlar kelib chiqdi, natijada Qirg'iziston muvaqqat prezidenti

Roza Otunbayeva tartibsizliklarni bostirish uchun Rossiya qo'shinlaridan yordam so'radi. Qurmanbek Bakiyev etnik mojaro ortida uning tarafdorlari turgani haqidagi ayblovlarni rad etdi va KXShTni aralashishga chaqirdi. Asqar Akayev, shuningdek, KXShTni qo'shin yuborishga chaqirib: "Hozirgi kunda bizning ustuvor vazifamiz bu adovat alangasini o'chirish bo'lishi kerak. Buning uchun bizga KXShT tinchlikparvar kuchlari kerak bo'lishi ehtimoldan xoli emas", dedi. Ammo tashkilot aralasha olmagan uchun uni "qog'oz yo'lbars" deb hisobladi.

2010-yil 21-iyulda Qirg'iziston muvaqqat prezidenti Roza Otunbayeva Qirg'iziston janubiga KXShT politsiya bo'linmalarini kiritishga chaqirdi: "Menimcha, u yerda KXShT politsiya kuchlarini joriy etish muhim, chunki biz o'z kuchimiz bilan odamlarning huquqlarini kafolatlay olmaymiz". U yana qo'shimcha qildi: "Men KXShTning quchog'iga intilmayapman va ularni bu yerda qolish uchun olib kelishni istamayman, biroq u yerda qon to'kish aks holda davom etadi". Oradan bir necha hafta o'tgach, Otubayeva – muvaqqat Qirg'iziston hukumati raisining o'rinbosari, ularning KXShTdan yordam so'rab murojaatlari e'tiborga olinmaganidan shikoyat qildi. Armanistonning Yerevan shahrida Roza Otunbayeva hamda Aleksandr Lukashenko ishtirok etgan yig'ilishda KXShT Qirg'izistonga harbiy yordam ko'rsatish bo'yicha kelisha olmadi.[8]

2010-yil 10-dekabrda a'zo davlatlar qo'shma hujjatlar to'plamini imzolashdan tashqari, KXShT tinchlikparvar kuchlarini tashkil etish to'g'risidagi deklaratsiya va KXShTga a'zo davlatlarning deklaratsiyasini tasdiqladilar.[9] 2011-yil 21-dekabrda boshlab Shartnoma ishtirokchilari Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkilotiga (KXSHT) a'zo davlatlarda yangi xorijiy harbiy bazalar tashkil etilishiga veto qo'yishlari mumkin. Bundan tashqari, Qozog'iston KXShTga raislik vazifasini Belarusdan o'z zimmasiga oldi.[10]

2012-yil 28-iyunda O'zbekiston KXShTga a'zolikni to'xtatdi. [11] 2014-yil avgust oyida Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston a'zolaridan 3000 nafar askar Qozog'istonda KXSHT tomonidan boshqariladigan urush o'yinlari doirasida psixologik va kiber urush mashg'ulotlarida qatnashdi.[12]

2015-yil 19-mart kuni KXShT Bosh kotibi Nikolay Bordyuja Ukrainaning Donbas shahriga tinchlikparvar missiyasini yuborishni taklif qildi.

2020-yildan boshlab Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotiga Stanislav Zas bosh kotib etib saylandi.

KXShT Kollektiv xavfsizlik kengashining 2022-yil 6-yanvarda qabul qilingan qaroriga muvofiq, vaziyatni barqarorlashtirish va normallashtirish uchun KXShTning Kollektiv tinchlikparvar kuchlari cheklangan muddatga Qozog‘iston Respublikasiga yuborildi” — deyiladi tashkilot xabarida.

KXShT ma’lumotlariga ko‘ra, tinchlikparvar kuchlar tarkibiga Rossiya, Belarus, Armaniston, Tojikiston va Qirg‘iziston Qurolli kuchlari bo‘linmalari kiritilgan. “KXShT Kollektiv tinchlikparvar kuchlarining asosiy vazifalari muhim davlat va harbiy obyektlarni qo‘riqlash, vaziyatni barqarorlashtirish va mamlakatni huquqiy maydonga qaytarishda Qozog‘iston Respublikasining huquq-tartibot kuchlariga yordam berishdan iborat bo‘ladi”, — deya ta’kidlangan KXShTda. Ayni vaqtda KXShT kollektiv xavfsizlik kengashini boshqaruvchisi hisoblangan Armaniston bosh vaziri Nikolay Pashinyan Qozog‘istonga tinchlikparvar kuchlarning kiritilishi – 1992-yil 15-mayda imzolangan Kollektiv xavfsizlik to‘g‘risidagi shartnomaning 4-moddasiga asosan amalga oshirilganini aytib o‘tdi. Shartnomaning 4-moddasida, jumladan shunday deyiladi: «Agar ishtirokchi davlatlardan biri tajovuzga duchor bo‘lsa, bu bitim ishtirokchisi bo‘lgan barcha davlatlarga tajovuz deb baholanadi.

Ishtirokchi davlatlardan birortasiga tajovuz (xavfsizlik, barqarorlik, hududiy yaxlitlik va suverenitetga tahdid soluvchi qurolli hujum) sodir bo‘lgan taqdirda, barcha boshqa ishtirokchi davlatlar ushbu ishtirokchi davlatning iltimosiga binoan unga darhol zarur yordamni, shu jumladan harbiy yordamni ko‘rsatadi. Shuningdek, BMT nizomining 51-moddasiga muvofiq, jamoaviy mudofaa huquqini amalga oshirish uchun o‘z ixtiyorida bo‘lgan vositalar bilan ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. History of creation, fundamentals of activity, organizational structure: <https://en.odkb-csto.org/25years/>
2. J.H. Saat, The Collective Security Treaty Organization, Central Asia Series 05/09, Swindon: Conflict Studies Research Center, UK Defence academy, February 2005, pp.8,10;
3. I. Plugatarev, “Varshavskiy dogovor vozrozhdayetsa”, Nezavisimoye Voyennoye Obozreniye, No. 24 (433), 1 July 2005, p.2.
4. Uzbekistan: Tashkent Withdraws From GUUAM, Remaining Members Forge Ahead: <https://www.rferl.org/a/1100023.html> 18 June 2002. Retrieved 13 November 2020.
5. KXShTga to‘laqonli a‘zo sifatida qo‘shilishi va uning a‘zoli O‘zbekiston parlamenti tomonidan 2008-yil 28-martda ratifikatsiya qilinishi: <https://web.archive.org/web/20140227124643/http://www.eurasianhome.org/>
6. KXSHT va uning tinchlikparvar kuchlari Qozogistonda qanday vakolatlarga ega: <https://kun.uz/uz/news/2022/01/06/kxsht-va-uning-tinchlikparvar-kuchlari-qozogistonda-qanday-vakolatlarga-ega>
7. KXShTning Tojikiston poytaxti Dushanbeda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) bilan xavfsizlik, jinoyatchilik va giyohvand moddalar savdosi kabi masalalar bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risida shartnoma imzolashi: <https://dailytimes.com.pk/> from the original on 11 September 2013. Retrieved 6 October 2007.
8. Belarus leader raps Russia: <https://www.reuters.com/article/idUSTRE63O0PT20100425>
9. Russian-led bloc undecided on aid for Kyrgyzstan: <https://www.reuters.com/article/idUSLDE67J1KU>
10. Meeting of the Collective Security Treaty Organisation: <http://eng.kremlin.ru/news/1459>

11. Qozog‘iston KXShTga raislik vazifasini Belarussiyadan qabul qilib olishi:
https://www.thehindu.com/todays_paper/tp-international/article2736607.ece

12. Uzbekistan Suspends Its Membership in CSTO:
<https://www.satrapia.com/news/article/uzbekistan-suspends-its-membership-in-csto/>

13. Qozog‘istonda KXSHT tomonidan boshqariladigan urush o‘yinlari doirasida psixologik va kiber urush mashg‘ulotlari:
<https://www.silkroadreporters.com/2014/08/12/armenia-participate-kazakhstan-csto-drills/>



BALANCE BETWEEN GTM AND CLT IN THE CLASSROOM

Xonto‘rayeva Yulduz Kenjaboy qizi

student of Navoi State Pedagogical Institute,

Yavkacheva Mohlaroyim Azizbek qizi

student of Navoi State Pedagogical Institute,

Yugay Evgeniya Viktorovna

a scientific adviser, a senior teacher of Navoi State Pedagogical Institute

ABSTRACT

Throughout the history of evolution of teaching foreign languages there were debates over which methods were the most effective. However, modern educational system does not label any method as the best or the worst, but searches the ways to implement them together in order them to form a concord. This article illustrates the benefits of GTM and CLT when they are implemented in the classroom together.

Key words: Grammar translational method, communication, Communicative language teaching, sentence structure.

ANNOTATSIYA

Xorijiy tillarni o‘qitishning rivojlanish tarixi davomida qaysi o‘qitish usullari eng samarali ekanligi haqida bahs-munozaralar olib borilgan. Biroq, zamonaviy ta‘lim tizimi hech qanday usulni eng yaxshi yoki eng yomon deb belgilamaydi, aksincha ularni uyg‘unlik hosil qilishi uchun birgalikda amalga oshirish yo‘llarini izlaydi. Ushbu maqola Grammatik tarjima usuli va Kommunikativ til o‘rgatish usulining sinfda birgalikda qo‘llanilishining afzalliklarini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: Grammatik tarjima usuli, aloqa, kommunikativ til o‘rgatish usuli, gap strukturasi.

In the digital economy, the accumulation of material goods ceases to be the main goal of society, intangible values and interests come to the first stage. “The new nature of work is associated with the improvement of the qualifications of workers, their constant training and creative communication”²⁸. Fluent and accurate language competency is the target of language teaching process. Both fluency and accuracy pave the way to perfect language skills. To teach linguistics competence teacher’s first choice is usually Grammar translation method, while Communicative language teaching is used to augment students’ communicative skills. “Communication skills are the abilities that enable you to receive and convey all kinds of information”²⁹. It means that, these two methods are required to be applied in harmony to achieve the main target.

Regardless of student’s level or age implementation of GTM and CLT in a way that complete each other is important, as they are deemed as inseparable methods, which show the best results when used in integration. This idea is explained by Richard as follows: “... it is clearly not all that is involved in learning a language since one can master the rules of sentence formation in a language and still not be very successful at being able to use the language for meaningful communication. It is the latter capacity which is understood by the term communicative competence”³⁰.

Grammar translation method that is also called classical method is a method of teaching English that uses translation of the implementation. The main characteristic of this method is that this method focuses on learning the rule of the grammar (sentence structure) and the implementation of it in translating passage from one language to another language. In another word, a teacher who teaches English by using GTM will teach the grammar. Furthermore, the teacher uses grammar to teach the students by translating one language to another language. This kind of method is

²⁸ Югай Е. Цифровая культура и общество: проблемы их взаимоотношений в условиях глобализации // Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 7/8. – С. 58-67.

²⁹ Yugay Evgeniya Viktorovna. (2022). INFORMATION AND DIGITAL LITERACY: THEIR CONCEPTS AND SKILLS. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6945140>

³⁰ Richards., Jack C. (2006). Communicative Language Teaching Today. Cambridge: Cambridge University Press.

assumed that it can make the students bored in the classroom, because a teacher who uses GTM in teaching English will present the language structure in front of the classroom. Furthermore, the students just listen and take a note from the explanation of the teacher. It means that GTM can create the domination of the teacher in the classroom. In other words, the class activity will more focus on the rule of the language structure than practice the rule itself.

However, Grammar Translation method still has the advantage for language teaching and learning, especially in term of accuracy. Learning English accurately is very important, especially for reading, because it can help the students to understand the construct of sentence in a text. This condition can help the students to understand a text through the identification of sentence, such as part of speech, noun determiner, tenses, etc. This condition can help the students to comprehend a text easily, because learning English means learning to read.

When GTM focuses on teaching grammar, then CLT focuses on the language usage. It means that CLT is a method that focuses on how a certain language is used in communication. This idea is supported by Harmer, he said that CLT talks about the concept of the language usage.³¹ This condition is reflected in our English Curriculum that the English teachers should teach the students some expressions which are used to communicate, such as asking and giving something, asking and giving services, expression of certainty and so on. It is a proof that the English curriculum nowadays is designed based on the CLT method.

However, Teacher can not tell students to talk in target language without them having background knowledge or correct structure that will help them to form a sentence.

A study of GTM and CLT had been done by Shih-Chuan Chang from Cheng Shiu University of Taiwan. The researcher compared Grammar Translation method and Communicative Approach in teaching English Grammar.³² The result of the research showed that grammar teaching in the framework of the Grammar Translation Method is better than Communicative Approach. It means that teaching grammar is better to

³¹ Harmer, Jeremy. (2007). *The Practice of English Language Teaching* (4th Edition). UK: Ashford Color Press.Ltd.

³² Hari prastyo Indonesian EFL Journal Voume1, Issue 2, December 2015

use Grammar Translation Method (GTM). Furthermore, teaching grammar focuses on accuracy. Based on the research, we can understand that Grammar Translation Method (GTM) will achieve accuracy of learning English. In addition, Communicative Language Teaching (CLT) will achieve fluency of learning English. This research showed that both GTM and CLT have important role in learning English, but they have different function.

No method is considered as worse or better, as all of them serve as an aid for teachers to convey the topic and for students to understand the given material. Main goal of GTM is accuracy and essence of CLT is fluency. So they do not work separately, but rather support each other. Based on the results of the researches that were mentioned above harmony of these two most wide-spread methods show the best results, irrespective of them having completely different functions.

REFERENCE

1. Югай Е. Цифровая культура и общество: проблемы их взаимоотношений в условиях глобализации //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 7/S. – С. 58-67.
2. Yugay Evgeniya Viktorovna. (2022). INFORMATION AND DIGITAL LITERACY: THEIR CONCEPTS AND SKILLS. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6945140>
3. Richards., Jack C. (2006). Communicative Language Teaching Today. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Harmer, Jeremy. (2007). The Practice of English Language Teaching (4th Edition). UK: Ashford Color Press.Ltd.
5. Hari prastyo Indonesian EFL Journal Voume1, Issue 2, December 2015

ЎРТА АСР ЁДГОРЛИКЛАРИ ТАШҚИ ВА ИЧКИ МУҲИТИДА ҚЎЛЛАНИЛГАН ҚУРИЛИШ АШЁЛАРИ

Магистр: **Аъзамова Дурдона Авазжон қизи**

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Ўрта аср ёдгорликлари ички муҳитида қўлланилган қурилиш ашёлари, уларнинг турлари, қўлланилишдаги эришилган афзалликлар ҳамда камчиликлар ҳақида сўз боради. Ўзбекистон ҳудудидаги турар-жой, истехкомлар, саройлар, масжидлар қурилишида ишлатилган қурилиш ва безак ашёлари тўғрисида фикр юритилган.

Калит сўзлар: хом ғишт, пишган ғишт, Парфия, Ниса, лой, гипс, ганч, каолин, тош, Чилсутун саройи, Улуғбек мадрасаси, Устуршона, Чилдухтарон.

Кириш. Интерьер бино экстерьерери билан ҳамоҳанг тарзда бўлиши янгилик эмас. Ўрта асрларда конструктив қурилиш ашёларининг интерьер учун аҳамияти катта бўлган. Илк ўрта аср гумбазларида ғиштлар тартибли таҳланган ва ички қисмда чиройли кўриниш берган. Девор ва устунларда ҳам конструктив қурилиш ашёлари устки қисмлари ёпиб безаклаштирилмаган.

Методлар. Ўрта асрларда нафақат Ўзбекистон ҳудудида балки бутун Ўрта Осиё давлатларида ҳам лой ғиштлар ва пахса деворлардан кенг фойдаланилган. Бунга унга ишлатиладиган хомашё - тупроқнинг осон топилиши, ҳамёнбоп бўлиши, қайта ишлашга қулайлиги сабаб бўлган бўлиши мумкин.

Хом ғишт. 9—10-асрларда, аввалги даврларда бўлгани каби, Ўрта Осиёда пишмаган (хом) ғишт ва пахса энг кенг тарқалган қурилиш материали бўлиб қолган: улардан нафақат турар-жойлар, балки шаҳар истехкомлари, саройлар, масжидлар каби монументал иншоотлар ҳам қурилган. Хом ғиштлар очик ёғоч

қолипларда тайёрланиб, қуёшда қуритилган. Мустаҳкамлиги учун унга сомон, талк, баъзан жун қўшилган. Тупроқ (глина) асосий хомашё бўлиб хизмат қилган [1].

Хом ғиштлар арзон ва хамёнбоп ашё бўлса-да, уларни ўрнатиш, монтаж қилиш анчагина қийинчилик туғдирган. Бир ғишт оғирлиги 11 кг гача етган. Уларнинг ўлчамлари дастлабки даврларда Хмельницкийнинг ёзишича, 50x25x10 см бўлса, кейинчалик 40x20, 42x21 см ва ниҳоят 32-33 см бўлиб ўртача ўлчамга келган. Агар бино деворларининг устки фасад қисми ва ички юзаларини лойихалашда уч турдаги териш тартибидан фойдаланилган бўлса, улар аниқ тартибда жойлаштирилган, уларнинг мураккаблигига кўра, деворларнинг пастки қисмлари оддий тур билан терилган, деворнинг юқори қисмларида жуфт қилиб терилган – ундан ҳам юқорироқда улар орасига вертикал қўшимчалар билан жуфт тарзда ғишт терилган. [1]

Пишган ғишт. Пишган ғишт Ўрта Осиёда антик даврларда ҳам маълум бўлган ва ишлатилган: у Парфиянинг биринчи пойтахти Нисада (милоддан аввалги 3—2-асрлар) қазиш ишлари пайтида топилган ва бу ерда одатдаги квадратлардан ташқари, думалоқ устунлар учун махсус нақшли ғиштлардан ҳам фойдаланилган. 5—8-асрларда пишган ғишт чекланган даражада ва асосан ҳовлиларнинг юзаларини, текис томлари ва деворларнинг пастки қисмларини намликдан, зинапоярни шўрланишдан ҳимоя қилувчи изоляцияловчи материал сифатида ишлатилган [1]. Ғиштларнинг ўлчамлари вақт ўтгани сари кичрайиб, ўрнатишга осонлашиб борган. Ўлчамлари 21-23 см гача кичрайган. Ғиштлар ҳам ўз қимматига эга ашё ҳисобланган. Бир иморат бузилса, унинг ғиштларини бошқа бир иморат қурилишида фойдаланишган. Наршахий “Бухоро тарихи” китобида: “Беш юз олтмишинчи йили (18 ноябрь 1164 — 6 ноябрь 1165) Бухоро шахрининг айланасига девор қурмокчи бўлдилар; деворнинг тагини пишиқ ғишдан ишлаш зарур бўлди. Ҳисорнинг таги ва миноралари пишиқ ғишдан эди, уни бузиб олиб Бухоро шахрининг деворига

ишлатдилар .Ҳисор бир йўла вайрон бўлди ва у қасрдан ҳеч бир иморат ва нишон қолмади”[2] деб ёзади.

Мустаҳкамловчи ашё (лой, гипс, ганч) – ғиштларни одатда лой билан (тупроқ ва сув аралашмаси) бирга теришган. Лой топиш осон бўлган ва тайёрлаш ҳам катта маҳорат талаб қилмайдиган ашё ҳисобланади. Гипс ҳам маҳаллий қоришма сифатида кўп ишлатилган. Гипс ва сув аралашмаси “ганч” ни ҳосил қилган. Ганч билан мустаҳкамлик юқори бўлиши талаб этилган қисмлар: аркалар, гумбазлар ва баъзида деворлар ҳосил қилинган. *Ганч* - алебастрнинг бир тури, гипс ва тупроқдан иборат тошсимон жинсни ўтда қиздириш йўли билан ҳосил қилинадиган бинокорлик материали [3].

Гипс тоши захираларининг кенг тарқалгани, осонликча боғловчилик хусусиятига эга бўлиши (140-170 °С да пиширилади), сув билан аралаштирилганда тез қотиб, мустаҳкамликка эришиши, осон ишлов бериш имконияти ва шу каби хусусиятлари гипснинг тарихий обидаларда кенг миқёсда ишлатилишини тақозо этган. Гипстошига табиий ҳолатда соз тупроқ (каолин) аралашган бўлиши ва у куйдирилганда майин боғловчи ганчга айланиши аввалдан маълум бўлган. Ганч ўймакорлиги, панжара ва бошқа архитектура қисмларини қолиплаш шулар жумласидандир. Гипс ва ганч бино ва иншоотларнинг пол, девор, шип қисмларини безашда, хоналарни бўлиш учун пардевор блоклари сифатида, ташқи карниз буюмлари олишда ишлатилган. [4]. Ганч қоришмаси лойдан анча мустаҳкам лекин намликка чидамсиз ҳисобланади ҳамда у эластик хусусиятга эга. Бу эса тез-тез zilзила бўлувчи Ўрта Осиё худуди учун муҳим саналган [1].

Ганч бундан ташқари керамик қопламаларни деворга ёпиштиришда, девор юзасини қолашда ва деворий суратлар тагидан грунт сифатида ётқишишда қўлланилганлигини кўришимиз мумкин.

Тош. Тошлар ва тоғ жинслари меъморчиликнинг асосий ашёларидан ҳисобланади. Биноларнинг устки безалишида мармар плиталар ўрнатилган.

Самарқанддаги баъзи ёдгорликларда (Чилсутун саройи, Улуғбек мадрасаси) устунлар ва қопловчи плиталарида ишлатилганини кўрамиз.

Қурилиш ашёси сифатида тош камдан-кам қўлланилган. Асосан тоғ районларида ишлатилган. Деворга териш учун қайта ишланмаган тошлар ишлатилган. Гумбазлар, аркалар ва уларнинг қисмларида тош терилмаган. Тошдан қурилган ёдгорликка мисол қилиб Устуршонадаги Чилдухтарон (10 - 11 аср бошлари) комплексини (турар-жой, икки масжид, мақбара ва кутиб олиш худуди) келтиришимиз мумкин [1].

Ёғоч. Дарахтдан йирик ҳажмларда ва қисқа умрли қурилиш материалларидан қурилган бинолар меъморчилигида фойдаланилган. У ёғоч теримларида, деворларда сейсмик боғловчи сифатида фойдаланилган (бу ерда қурувчилар кучли арча – саурни афзал кўрганлар). Кўпинча безакли ўймакорлик билан қопланган устунлар ва тўсинли шифтлар тизимида (бунинг учун жуда қаттиқ бўлган ёғочлар танланган: қарағай, чинор, арча, тут, ўрик) қўлланилган. Шифтлар, эшиклар, деразалар ва уларни қоплаб турган панжараларнинг ўйилган ва йиғма меъморий деталларида юмшоқроқ ёғочлар – терак, тол, жўка ишлатилган [5].

Геометрик шакллардан ҳосил бўлган гирих нақшини ёғочдан ясаш анча енгилроқ ҳисобланади. Чунки бу шаклларни ҳосил қилиш учун усталар, шаклни алоҳида-алоҳида бўлақларга (раппорт) ларга ажратишган ва ёғочдан ясашган. Уларни мих, елим ишлатмаган ҳолатда бир-бирига улай олишган. Кейинчалик эса нақшни бир бутун ром бирлаштирган. Ёғоч ашёси исломгача бўлган даврда ва ундан кейин ҳам меъморчиликда кенг қўлланилган. Албатта ундан ясалган конструктив элементлар бизгача етиб келиши қийин эди. Лекин археологик топилмалар шуни кўрсатадики, ўрта асрларда ўрмонлар катта майдонларни эгаллаган.

Керамик қопламалар. XIV-XV аср охиридаги меъморий безакларда керамик қопламалар алоҳида рол ўйнайди. Бунда кўп нарса архитектор – кулолларнинг олдинги вакилларида мерос бўлиб ўтган, аммо плиткали безак

ҳеч қачон бундай технологик ва бадиий мукамалликка эришмаган. Безаклар рангли сирланган ғиштлардан - кўк, мовий, оқ, вақти-вақти билан - яшил ва қора ранглар, пиширилган лойдан табиий рангдаги сайқалланган қурилиш ғиштлири фонидан нақш ҳосил қилиб терилган. Нақшнинг олдиндан ишлаб чиқилган ҳисобланган нақшлари тўғридан-тўғри девор текисликларида ёки эгри чизиқли шакллар юзасида - миноралар, гумбазларнинг барабанларида тез қотиб турувчи ганч оҳакларига ўрнатилиб, ғиштлар орасидаги чоклар шакллантирилган. Интерьерларни безашда рангтасвир ва безак орнаментларидан фойдаланилган. У олдиндан тайёрланган оқ-ганч (гул-ганч) га ўрнатилган. Кобальт, киновар (қизил минерал), охра каби ранглар орқали ҳамда махсус оқартирувчи моддалар қўшган ҳолатда ранг палитраси ишлаб чиқилган [1]. Керамик қопламалар махсус печларда пиширилган. Печдан чиққан қоплама юзасидаги ранглар ёрқин ва кўримли бўлган. Катта нақш юзалари кичик шакллардан ҳосил қилинган.

Бўёқлар. Деворий суратларда қўлланилган бўёқларнинг таркиби ҳақида турли фаразлар юради. Варахша, Афросиёб ёдгорликларидаги сарой девор суратлари табиий ўсимлик, турли тоғ жинслари кукунлари каби табиий унсурлардан фойдаланиб безатилган деган тахминлар ҳам йўқ эмас.

Натижа. Меъморий безакда асосан ганч ва керамик ашё қўлланилган. Керамик безак ўйма сопол тариқасида ишлатилган. Майда ғиштлири турли ҳолатларда териш натижасида хилма – хил нақш ҳосил қилиниб, юқори даражадаги бадиий эффектга эришилган. Наққош усталар ёғочнинг бадиий имкониятларини тўла ўзлаштирганларини бизгача сақланиб келган намуналар далолат беради [6]. Ислон дини жонли тасвирларга таъқиқ қўйган бўлса-да, баъзи бинолар деворларида машҳур асарлар образлари туширилган фреска, панно, барельефларни учратишимиз мумкин.

Хулоса.. Қурилишдаги ашёларнинг ҳайратланарли мустаҳкамлигини, уларнинг мос равишда танланганлиги ва ишлов бериш самарасига боғлашимиз мумкин бўлади. Ўрта асрларда ғиштлар қолипларга қўйилаётганда махсус

қўшимчалар қўшилган деган фаразлар ҳам йўқ эмас. Уларни бириктирувчи ганч қоришмасига ҳам органик ва минерал қўшимчалар қўшилган. Бу уларни мустахкамлигини оширган. Аҳоли ўз уйларини кенг тарқалган ашёдан қуришга эҳтиёж сезишган ва ёғоч энг кенг миқёсда фойдаланиладиган ашёга айланган. Ёғоч ўймакорлиги намуналари орқали турар-жойлар, саройлар, мақбаралар безалган. Ёғочдан ҳосил қилинувчи бундай элементлар юмшоқ дарахтлар танасидан олинган ёғочдан ҳосил қилинган.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Хмельницкий С. “Между арабами и тюрками (Архитектура Средней Азии IX-X вв)” Берлин - Рига. 1992. 36-39 б.
2. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий “Бухоро тарихи” 943-944 й. 10-16-бет
3. Ғуломов К. “Амалий санъат” Т. 2007 86 б.
4. Жониева И. Ё. “Меъморий ёдгорликлар беагини таъмирлашда ашёда ишлаш” Т. 2018 25 б.
5. Пугаченкова Г. “Зодчество Центральной Азии XV век” Т. 1976. 15 б.
6. Пўлатов. Х. Ш. “Ўзбекистон архитектура ёдгорликлари” Т. 2013. 28 б.

РЕАКТИВ ҚУВВАТ МАНБАЛАРИНИ НАЗОРАТ ВА БОШҚАРУВИ ЎЗГАРТГИЧЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА ЎЗГАРТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Баратов Лазиз Суюн ўғли

Жиззах Политехника институти “Энергетика ва радиоэлектроника”
факултети “Энергетика” кафедраси ассистенти

Электр таъминоти тизимларида уч фазали электр тармоғини назорат ва бошқаруви элементлари ва қурилмаларида ахборот кўринишидаги электр энергияси токининг ўзгариши рўй беради. Электр токининг ўзгариши иссиқлик ва масса алмашинуви асосида ва электр магнит ва электр динамик ҳодисалар оқибатида амалга оширилади. Токнинг бирламчи ўзгартирувчиларида энергия ўзгаришининг асосий функцияси – назорат ва бошқарув тизими учун ток ёки кучланиш кўринишидаги ахборотнинг ўзгариши жараёнида рўй беради.

Уч фазали электр тармоғи тўла тоқларини назорат қилиш ва бошқарув тизими ўзгартириш, коммутация, стабилизация ва бошқариш каби функцияларни ўз ичига олади.

Ўзгариш, коммутация, стабилизация ва бошқариш умумий бўлган “Бошқарув” атамаси билан бирлашади, Электр таъминоти тизимининг бирламчи ўзгартирувчиси остида электр тоқи билан ўзгартириш элементи ёки қурилмасини тасаввур қиламиз. Электр таъминоти тизимининг иш режимлари ток ва кучланиш бўйича ўрнатилади, уч фазали тоқларни бошқариш аниқлиги қувват ва энергия билан боғлиқ бўлиб долзарб ва иқтисодий жиҳатдан оқланган вазифа ҳисобланади.

Ҳозирги вақтда ўзгартиргичларнинг кўплаб турлари маълум ва бу зарур типдагисини, ўзгартиргичларнинг муайян конструкциясини танлашни қийинлаштиради. Шу сабабли ўзгартиргичлар элементлари ва конструкциясини

муайян тамойиллар асосида таҳлил қилиш мақсадга мувофиқки, бу уларнинг принципал ва конструктив ўзига хосликларини аниқлаш имконини беради. Бу соҳада кўплаб ишларнинг мавжудлигига қарамай, ҳозирги вақтда кенгайтирилган функционал имкониятли электромагнит ўзгартиргичларнинг (КФИЭМТЎ) электр таъминоти тизимлари уч фазали электр тармоғининг тоқларни кучланиш кўринишдаги сигналларга ўзгартиришнинг умумийлаштирилган таснифи йўқ.

Ҳозирги вақтда мавжуд бир фазали ўзгартиргичлар уларни ўлчанаётган тармоққа киритиш усули бўйича икки катта синфга бўлинади: 1) ўлчанаётган тармоққа киритилган, маълум қаршиликли резистив, индуктив ва сиғимли элементларда кучланишнинг тушиб кетишини аниқлашга асосланган контактли ўзгартгичлар; 2) ўлчанаётган ток яратаётган магнит майдонининг қўлланилишига асосланган контактсиз ўзгартгичлар.

Уч фазали электр тармоқларда электр иссиқлик ва электр кимёвий эффектларни қўллаш мумкин, бироқ амалга ошириш қийинлиги ва паст метрологик характеристика туфайлиулар кам қўлланилади.

Контактсиз ўзгартгичлар қўлланилган магнитга, сезгир элементлари типига кўра электрометрик, электромеханик, индукцион, магнитогальваник, магниторезонансли ва магнитооптик турларга бўлинади.

Контактли ўзгартирувчилар, ташқи магнит майдонлар ва ферромагнит массалар кўрсаткичлари инвариантлилиги, ёрдамчи қувват манбаларига эҳтиёжнинг йўқлигига қарамай, нисбатан катта масса ва қувват истеъмолига эга, ишончлилиқ даражаси паст, кенг диапазонда амалга ошириш қийин, уларни электроавтоматика бошқаруви ва назорати тизимлари, юқори кучланишли электр узатиш тизими занжирлари ва электр таъминот тизимларида деярли қўллаб бўлмайди, шунингдек улар катта динамик хатоликларга эга.

Оптик толали ток ўзгартиргичлари. Ҳозирги вақтда токни ўзгартириш учун оптик толали линиялардан фойдаланилади, бу хавфсизлик техникаси ва хатодан ҳимояланиш нуқтаи назаридан афзал ҳисобланади. Бундай

линиялардан аналогли сигналларни бевосита узатиш алоқа линияси элементлари характеристикалари ностабиллиги туфайли кичик хатоликларга етишиш имконини бермайди, шунинг учун модуляциянинг ҳар хил турлари қўлланилади.


Оптик толали ток ўзгартиргичларда сиғимли ёки резистив датчикдан ахборот модуляторга келади. Модулятор аналогли кучланишни частота ёки давомийлиги модуляцияланган импульсларга ўзгартиради. Ёруғлик таратувчи диод ва фотодиод ўзаро оптик толали жгут билан бирлашган. Кучайтиргич фотодиод чиқишида пайдо бўлувчи импульсларни кучайтиради, демодулятор электр таъминоти тизимидаги дастлабки сигнал шаклини қайта тиклайди. Шунингдек аналогли кучланишни рақамли шаклга ўзгартириш ва уни оптик канал бўйича бошқариш марказига ЭҲМга чиқиш мақсадида узатиш қўлланилади.

Оптик толали алоқадан фойдаланиш гальваник бўлишдан ташқари зарур бўлганда ўзгартиргичнинг юқори ва паст вольтли қисмларини катта масофага (100 – 200 м) узатиш имконини беради.

Ўзгариш хатоликларига келсак, хорижда саноат частотасининг кучланиши 500 кВ бўлганда 0,3 % хатоликларга эга токнинг ўлчовчи ўзгартиргичлари қўлланилади (Япония). Токни ўлчашда, асосан, Фарадейнинг магнитооптик эффектидан фойдаланилади. Токнинг магнитооптик датчиги структуравий схемаси 1-расмда берилган. Ёруғлик векторининг тебранишлари турли йўналишларда рўй берувчи ёруғлик манбаидан (ЁМ) чиқувчи табиий ёруғлик чизикли қутбланишни амалга ошириш, яъни тебранишларни муайян ўқ бўйлаб тартибга келтириш учун поляризаторга тушади. Кейин ёруғлик тўлқинидан магнитооптик элемент (МОЭ) ўтади ва у қутбланиш юзасини айлантиради. МОЭ ўлчанадиган токли (унинг индукциясини ўлчаш зарур) бирламчи ўзгартиргич (БЎ) нинг магнит майдонида жойлашган бўлади. Токни магнитооптик ИП ёрдамида ўлчаганда токни магнит индукцияга ўзгартириш керак. Бунда магнитооптик сезгир элемент жойлашган ерда қатъий бир текис ва

бир жисмли магнит майдон бўлиши шарт эмас.

Магнитооптик ИП БФ1320 шишадан ясалган сочма конструкцияли ёпиқ световодга эга ва у қурилмани ток симини узмасдан монтаж қилиш имконини беради. Ёпиқ оптик контурдан фойдаланиш ташқи магнит майдонлар таъсирини пасайтириш имконини беради, бироқ бунда ўлчанаётган токнинг катта ЭЮКси туфайли компенсацион методдан фойдаланиш қийинчилик туғдиради. Уни магнит майдонининг ферромагнит концентраторларисиз бажариб бўлмайди. Шунинг учун ўзгартиргичнинг қўшимча вақт ва ҳарорат хатоликлари пайдо бўлади.




1-расм. Ток магнитооптик ўзгартиргичининг структуравий схемаси.

Шу билан бирга токнинг магнитооптик ўзгартиргичлари нисбатан паст сезгирлик, мураккаб конструкция, ўзгараётган токнинг қутбланиш бурчаги қиймати билан бир томонлама бўлмаган боғлиқлиги ва автоном қувват манбаига эга. Бундан ташқари улар паст ҳарорат, вибрацион барқарорлик, бошқарув ва назорат тизимларида кенг қўлланилишига халақит берувчи юқори нархга ҳам эга.

Токнинг магнитрезонансли ўзгартиргичлари модданинг атом бўлаклари магнит майдон яратаётган энергетик муҳитлар орасидаги магнитли дипол ўтишлар натижасида юқори частотали энергияни таратиш ҳодисасига асосланган. Катта тоқларни ўлчашда ядроли магнитли резонанс (ЯМР) ҳодисасига асосланган ўзгартиргичлар қўлланилади. Бундай ток ўзгартиргичларда атомлар ядроси ташқи магнит майдонлари таъсири остида моддалар қутбланади ва янги ўқ атрофида айлана бошлайди. Бу ўқ ташқи майдон магнит индукцияси векторига мос келади.

Магнитогаљваник ток ўзгартиргичлари. Ўтган асрнинг ўрталаридан

бошлаб магнитогальваник эффектга, хусусан, Холл эффектга асосланган ток трансфарматорлари қўлланила бошланди. Магнитогальваник ток трансфарматорларининг иши икки тамойилга асосланган. Биринчиси – оқувчи ток яратаётган магнит майдони кучланишини тўғридан-тўғри ўлчаш. Иккинчиси – токни ўлчашнинг компенсацион усули, у токни ўтказгич атропофидаги магнитопровод магнит майдони компенсацион ток магнит майдони билан магнитопроводдаги махсус ўрам орқали тенглашади, натижада Холл датчиги (ХД) ноль-орган сифатида ишлайди ва бу токни ўлчаш аниқлигини ошириш имконини беради.



2- расм. Холл эффекти асосидаги магнит-гальваник ток ўзгартгичнинг тузилиш схемаси.

Ўзгартгичнинг электр таъминоти кучланиш стабилизаторидан 24 В кучланиш билан амалга оширилади ва 12 кГц частотада ишлайдиган кучланиш ўзгартгичига берилади. Чиқишида ± 12 В ўзгармас кучланиш шакллантирилади. Магнит-гальваник ўзгартгичларда унча катта бўлмаган ҳажм ва вазндан ташқари, уларнинг афзаллиги юқори тезкорлиги ҳисобланади, бу улардан ўзгармас токни ўзгартириш учун фойдаланишга имкон беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Blake J., Williams W., Glasov C., Bergh.R., Fetting K., Hadley E., and Sanders G., “Optical Current Transducers for High Voltage Applications”, 2nd EPRI Optical Sensors Systems Vorkshop, Atlanta, Jan. 2000.
2. Hybrid Renewable Energy Systems for the Supply of Services in Rural Settlements of Mediterranean Partner Countries. Agricultural University of Athens. 2004.- 78 p.
3. Hybrid Power Plants [Electronic resource]//Enertrag. - 2012. Mode of access: <https://www.enertrag.com/en/project-development/hybrid-power-plant.html>. - Data of access: 31.01.2012.
4. International standard EN-50160, “Instrument transformers – Part 1: Current transformers”.



**KICHIK BIZNESDA RAQAMLI TADBIRKORLIK TENDENSIYALARI:
KECHA VA BUGUN**

Qosimov Sardor Dilmurodovich

Andijon mashinasozlik instituti stajyor-tadqiqotchisi, stajyor-o'qituvchi

E-mail: skosimov@mail.ru

Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li

Toshkent moliya instituti assistenti

E-mail: abdulhamidullo97@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun zamonaviy tadbirkorlar tomonidan qo'llanilgan va qo'llanilayotgan, shuningdek, istiqbolda qo'llanilishi zarur bo'lgan raqamli texnologiyalarning foydali tomonlari konseptual ravishda o'rganiladi. Tezis imliy abstraksiyalash, guruhlash va tizimli tahlil metodologiyalar asosida yozilgan. Yakunda mualliflar tomonidan yakdil xulosalar va takliflar tizimi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, raqamli tadbirkorlik, konsepsiya, zamonaviy texnologiyalar.

**DIGITAL ENTREPRENEURSHIP TRENDS IN SMALL BUSINESS:
YESTERDAY AND TODAY**

Kosimov Sardor Dilmurodovich

Intern-researcher, teacher of Andijan Machine Building Institute

E-mail: skosimov@mail.ru

Akbarov Abdulxamid Akmal ugli

Assistant of Tashkent financial institute

E-mail: abdulhamidullo97@gmail.com

Abstract: In this research, the useful aspects of digital technologies used and used by modern entrepreneurs for the development of small business and private entrepreneurship, as well as those that need to be used in the future, are conceptually studied. The thesis is written on the basis of the methods of orthographic abstraction, grouping and systematic analysis. In the end, a system of unanimous conclusions and proposals was developed by the authors.

Key words: entrepreneurship, small business, digital entrepreneurship, concept, modern technologies.

Ma'lumki, raqamli tadbirkorlik odatda raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan biznes yoki iqtisodiy imkoniyatlarga intilish sifatida ta'riflanadi. Raqamli tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar raqamli tadbirkorlar deb ataladi, natijada o'zlari yoki jamoalari uchun iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va zamonaviy axborot texnologiyalar asosiga qurilgan korxonalar yoki firmalar raqamli korxonalar deb nomlanadi. Garchi tadqiqotchilar "raqamli tadbirkorlik" atamasini keng qo'llashsa-da, afsuski uning kontseptsiyasi hali hamon tushunarsizligicha qolmoqda, bu sohada yangilik, tadqiqotlar haqida juda kam dalillar mavjud.


Albatta, zamon rivojlangani, yangidan yangi axborot texnologiyalari vositalari ishlab chiqilgani sari raqamli tadbirkorlikka qiziqish ortib borishi tabiiy, chunki u raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot tufayli tadbirkorlikni rivojlantirishning yakuniy va zamonaviy tendentsiyasi hisoblanadi, bundan tashqari zamon raqamli tadbirkorlikka yangilangan va ortib borayotgan qiziqish ortib borayotganini ta'kidlaydi va empirik dalillarni talab qiladi.

Raqamli tadbirkorlik va texnologiyaga asoslangan innovatsiyalarga qiziqish ortib borayotganiga qaramay, mazkur kontsepsiyani turli nuqtai nazardan va kontseptualizatsiyadan tushuntirish cheklangan. Bundan tashqari, raqamli tadbirkorlik kontseptsiyasini yaxlit ishlab chiqish va muhokama qilishning yetishmasligi ham uning rivojlanishiga bevosita ta'sir qilmay qolmaydi. Bundan tashqari, raqamli tadbirkorlikka oid ba'zi muhim va fundamental masalalar tadqiqot

ishlarida hozircha atroflicha ko'rsatilmagan. Bularga raqamli texnologiyalar tadbirkorlikni qanday o'zgartirishi, raqamli tadbirkorlik samaradorlik natijalarini qanday bashorat qilishi va raqamli tadbirkorlikning an'anaviy tadbirkorlikdan qanday farq qilishi kabi masalalar misol bo'la oladi. Shu bilan birga, raqamli tadbirkorlik sohasidagi tadqiqotlar juda kam. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan tadbirkorlik va korxonalarni batafsil tasniflash bo'yicha tadbirkorlik bilimlarining yetishmasligi mavjud bo'lib, bu asl kontsepsiyani tushunishning hozirgi darajasini va chegaralarini baholashni qiyinlashtirishi tabiiy. Ba'zi tadqiqotchilar raqamli tadbirkorlikni raqamli texnologiyalar va tadbirkorlik innovatsiyalarining kombinatsiyasi sifatida keng keng joriy etishni tanlagan bo'lsalar, boshqalari bu jarayonni raqamli texnologik ilovalar bilan tadbirkorlik maqsadlariga erishish bilan cheklanishadi. Ilmiy tadqiqot sohasida raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishni yaxshiroq baholash va rag'batlantirish uchun bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlar va tadqiqotlarni ko'rib chiqish, bu borada nima ishlar qilinganligi, nimalarni qayta ko'rib chiqish kerakligi va bu sohada nima yetishmayotganini ko'rib chiqish juda muhimdir.

Raqamli tadbirkorlik kontsepsiyasi bo'yicha tadqiqotlarni ko'rib chiqish raqamli texnologiyalar inqilobi tadbirkorlik va innovatsiyalarga qanday kirib kelganligi haqidagi hozirgi tushunchani va bir-birini to'ldiruvchi istiqbollarni baholash uchun zarurdir.

Tadbirkorlik faoliyatingizda axborot texnologiyalari (IT)dan qay darajada foydalanasiz?



Rasm. So'rovnoma natijasi

